

Xorazm viloyati pedagog kadrlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti

“Ijtimoiy fanlar va ma`naviyat asoslari”
kafedrası

**Ijtimoiy fanlar bo`yicha 2013-2014 o`quv yilining yakunida
o`tkazilgan ta`lim sifati monitoringi natijalariga ko`ra
o`quvchilarning bilimlarida aniqlangan bo`shliqlar
yuzasidan tayyorlangan dars ishlanmalari**

Urganch -2014 yil

**Mavzu: Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim tarixiga oid
yilnomalar, qonunlar majmui.**

Darsning maqsadi: Afina demokratiyasi, Solon isloxotlari, mil.avv. 621 yilda Drakant qonunlarining joriy etilishi, Perikl davri, Rim Respublikasi, 12 jadval qonunlari xaqida bilimlar berish.

Dars jixozi:

1. “Tarix” darsligi.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” xaritasi, siyosiy xarita

Tarqatma material:

Dars davomida beriladigan atama, tushuncha, sanalar yozilgan kartochkalar.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Uy vazifasini takrorlash.
3. Yangi dars mazmunini takrorlash.
4. O`tilgan mavzuni mustahkamlash.
5. Dars yakunlarini chiqarish, baxolarni e`lon qilish.
6. Uyga vazifa.

Dars bayoni: Afina shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish kerakligi xususida o`z-fikr muloxazalarini bayon eta olar edi. Ular yuzaga kelgan muammolar va yangi qonunlarni muhokama qilish uchun xar oyda to`rt marta agoraga yig`ildilar. Barcha qarorlar ovoz berish yo`li bilan qabul qilingan. Boshqaruvning bu shakli demokratiya deb ataladi, ya`ni bu atama “Xalq xokimiyati” degan ma`noni anglatadi. (“demas” – xalq + “Kratos” xokimiyat).

Drakont qonunlari. Mil.avv. VII asrda Afinada idora qilishda Oqsoqollar kengashi muxim ahamiyatga ega bo`lgan. Shu kengashda muxim hokimlar va sudyalarni saylagan. Ular, kengash

a`zolari singari, faqat Afina aslzodalaridan bo`lgan. Afinada axolining bir qismi zodagonlar (aristokratiya) mol-mulk va boylikning deyarli xammasiga egalik qilar, boshqa bir qismi oddiy xalq- “demos” ularning foydasiga ishlashga majbur edi.

Mil.avv. 621-yilda Drakant xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni yozadi va amalga kiritadi.

Bu qonunlar shu qadar qat`iy va ayovsiz ediki, afinaliklar ularga “Siyox qolib, qon bilan yozilgan”, deya ta`rif berishgan. Qonunni arzimas darajada buzganlik uchun xam Drakont bitta jazo – o`lim jazosi belgilagan.

Solon islohotlari: Afina davlatida xalq aslzodalar xukmronligidan norozi edi. Xalqning axvoli tobora yomonlashaverdi, shunda odamlar o`z haq-huquqlari uchun kurashga bel bog`ladilar. O`ta bilimdon va tajribali Solon degan zodagon xalqqa yon berishning qat`iy tarafdori bo`lgan. Solon aslzodalarga shunday degan: “Yunonistonning ko`pgina shaharlarida bo`ldim, xalq zodagonlarga qarshi chiqayotganini o`z ko`zim bilan ko`rdim. Kambag`allarga qullar kelib qo`shilmasdan turib, xalq talablarining bir qismini bajarish kerak”.

Zodagonlar Solonga ishonishdi va uni Afina xukmdori etib saylashdi. Mil.avv. 594-yilda Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o`zgartirdi.

Mil.avv. 443-429 yillarda 15 marotaba Strateg lavozimiga saylangan Perikl xukmronligi davrida Afina eng qudratli davlatga aylandi va mamlakatda demokratiya ravnaq topdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Afina demokratiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Salon islohatlari haqida nimalar bilasiz?

Uyga vazifa.

O`tilgan mavzu yuzasidan test topshiriqlari tuzish va ularni ishlash.

Mavzu: Qoraxoniylar xukumronligi davrida davlat boshqaruvi.

Darsning maqsadi:

- Qoraxoniylar davlati tuzumi va ma`muriy boshqaruvi haqida o`quvchilarga bilim berish.
- ularni sharqona demokratiya ruhida tarbiyalash.
- Tarixiy tushuncha va atamalarning tizimlashtirish ko`nikmasini hosil qilish.

Darsning jihozlari:

1. Darslik
2. O`zbekistonning siyosiy – ma`muriy xaritasi.
3. O`zbekistonning tarixiy atlas, doska, bo`r, tarqatmalar, testlar, rasmlar.

I. Tashkiliy qism:

O`quvchilar diqqatini darsga jalb etib ishchi muhiti yaratiladi.

- II. O`tilgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob. Bu o`yin musobaqa (Kim haqida so`z yuritilyapti, uning shaxsini aniqla o`yinini o`tkazish).

Ushbu o`yinni o`tkazish uchun o`quvchilar 3 jamoaga bo`linadilar. Oldindan tayyorlab kelingan topshiriqlarni jamoaga tarqatadilar.

1-topshiriq.

1. Ammo u Buxoroda uzoq turolmaydi (Bug`roxon)
2. U Buxoroga qaytib o`z taxtini elallaydi. (Nux ibn Mansur)
3. G`azna xukmdori yordamga chaqiradi (Sobuqtakinni)
4. Ularning ko`shinlari tor-mor qilinadi: (Boyiq va Abu ali qo`shinlari)

2-topshiriq.

1. 999 yilda Buxoro u tomonidan zabt etildi. (N.Eloqxon)

2. Unga qarshi bo`lgan Xurosonning mulkdor feodallari qo`llab quvvatlaydilar (Sulton Mahmudga)
3. U 1017 yilda Xorazm ustiga qo`shin tortib uni bosib oladi (Maxmud)
4. U 1038 yilda Amudaryo viloyatlarini g`aznaviylardan tortib oladi. (Ibrohim Bo`ritakin)

3-topshiriq.

1. U Bug`roxon unvoniga sazovor bo`ladi. (Ibrohim Tamg`ach)
2. U 1130 yilda Movarounnahrda qo`shin tortdi (Sulton Sanjar)
3. U qoraxoniylar davlati poytaxti Samarqandni ishg`ol qildi (Sulton Sanjar)

III. Yangi dars mundarijasi.

1. Qoraxoniylarda davlat boshqaruvi
2. Viloyat boshqaruvi
3. Qoraxoniylar hukmdorlarining turmush tarzi.

III. Matn va atamalar ustida ishlash.

Bu vazifa matn ustida ishlash usulidan foydalanib bajariladi.

O`quvchilar matn ustida ishlab quyidagi savollarga javob topadilar.

1. Qoraxoniylar davlat boshqaruvi qanday tashkil etilgan edi?
Qoraxoniylar davlatini el-yurt va viloyatlarga bo`lib idora qilardilar. El-yurt hokimlari “Eloqxon”, viloyat noiblari esa takin deb yuritilar edi.
2. Eloqxonlar qanday imtiyozlarga ega edilar?
Ular o`z nomlaridan chaqa tangalar zarb qilar va viloyatlarning mustaqilligi uchun intilar edilar.
3. Viloyat boshqaruvi ma`muriyatida kimlar xizmat qilar edi?
Vazirlar, sohibbaridlar, tustavoriylar, shaharlar esa shahar hokimi, raisi va mustasiblari tomonidan boshqariladi.
4. Bu davrda kimlarning obro`lari baland ko`tarilgan? Imomlar, Saidlar, Shayxlar, sadrlarga e`tibor kuchayib, ularning obro`yi har qachongidan ham balandga ko`tariladi.

5. Qoraxoniylarning turmush tarzi qanday bo'lgan? Ular xali o'troq hayotga ko'chmagan bo'lib, dexqonchilik vohalari va shaharlarning madaniy ahamiyatini yaxshi anglar edilar.
6. Ular qaysi shaharlar bilan aloqa bog'lashga harakat qilganlar? Bolosog'un, Qoshg'ar, Taroz, O'zgan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar bilan.

Darsni yakunlash:

Vazifani birinchi bo'lib bajargan o'quvchilardan 5 nafar o'quvchi baholanadi.

O'quvchilarni darsdagi faolligi darajasiga baho beriladi. Eng faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Xato va kamchilikni bartarf etish yo'llari ko'rsatiladi.

VI. Uyga vazifa:

1. Mavzu asosida berilgan savollarga javob topish.
2. Qoraxoniylar davridagi davlat lavozimlarini daftarga yozib kelish.

Mavzu: Afg'onistonda Barakzaylar sulolasi hukmronligi.

8-sinf.

Dars maqsadi:

A) Ta'limiy maqsad: Afg'oniston davlati va Barakzaylar sulolasi haqida tasavvurni xosil qilish.

B) Tarbiyaviy maqsad: O'z vatanini sevish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

S) Rivojlantiruvchi maqsad: Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsda foydalaniladigan turli xil metodlar: Aralash dars, Zamonaviy interfaol...

Darsda foydalaniladigan jixozlar texnik vositalar, ko'rgazmali va didaktik materiallar.

Darsni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: I. Tashkiliy qism. II. O`tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash) III. Dars mazmuni. IV. O`rganilgan mavzuni mustahkamlash. V. Darsni yakunlash. VI. Uyga vazifa.

Yangi mavzuni tushintirish:

1747-yilda afg`onlarning abdali qabilasi boshlig`i Axmadxon qabila xonlarining jirg`asi (kengashi) Afg`oniston shoxi deb e`lon qildi. Axmadshoh qisqa vaqt ichida mamlakat xududini bosib olingan o`lkalar xisobiga kengaytiradi. Bu g`alabalar evaziga u o`ziga "Durri Duron" unvonini qabul qildi va abdali qabilasining nomini "Durrani" nomi bilan o`zgartirdi. Markaziy xokimiyatga bo`ysunmaslik xarakati va bosib olingan o`lka xalqlarining doimiy qo`zg`olonlari oqibatida Durraniylar sulolasining xukmronligi zaiflashdi. Axmadshohning nabirasi Zamonshoh (1793-1801) bobosining bosqinchilik urushlarini davom ettirishga urinib ko`rdi. Zamonshoh xam ichki o`zaro nizolarni bostira olmadi. Uning o`zi xam fitna qurboni bo`ldi. Bu davrda vorislar o`rtasidagi toju taxt kurashi xam avj oldi. Bundan boshqa qabilalar xonlari foydalanishga urindilar. Shulardan barakzaylar yetakchisi Fatxxon xali u vorisini, xali bu vorisini taxt uchun kurashda qo`llab, davlatda bosh vazir lavozimni egallab oldi. U 1809-yildan davlat ishlarini o`z qo`liga oladi. U yirik xarbiy sardorlardan biri ukasi Do`st Muxammadxon yordamiga tayanardi. Uzoq davom etgan o`zaro urushlardan so`ng 1826-yilda Do`st Muxammadxon Afg`oniston taxtini egalladi va o`zini amir deb e`lon qildi. Shu tariqa Durraniylar sulolasi xukmronligi barxam topdi. Mamlakatda barakzaylar sulolasi xukmronligi o`rnatildi. Amir Do`st Muxammadxon butun Afg`onistonni yagona davlatga birlashtirishga va uni kuchli davlatga aylantirishga xarakat qildi.

Uyga vazifa: O`rganilgan mavzu savollariga javoblar tayyorlash.

Sinf-6

Mavzu: Qang` qabilalari, davlat birlashmalari, undagi pul islohotlari.

I. Darsning maqsadi:

- Ta`limiy maqsad:
 - o`quvchilarga Qang` qabilalari, davlat birlashmalari to`g`risida ma`lumot berish:
 - Qang` qabilalari boshliqlari qanday tangalar zarb qilganliklari to`g`risida ma`lumot berish.
 - mavzuga oid yangi atamalar bilan tanishtirish.
- Tarbiyaviy maqsad:
 - o`z maqsadiga erishish ruxida tarbiyalash;
 - o`z-o`zini boshqarishga yo`naltirish, xozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish;
- Rivojlantiruvchi maqsad:
 - o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish;
 - nutq madaniyatini o`stirish;

II. Darsning jixozi:

1. Dasrlik 2. Rasmlar 3. Tangalar.

Dars tipi: Aralash.

Dars turi: No`ananaviy.

Dars metodi: “Aqliy xujum”, guruhlar bilan ishlash.

III. Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism: salomlashish, davomat, darsning mavzusini va maqsadini e`lon qilish.

2. “Aqliy xujum” uchun savol.

1. Qang` davlati Xitoy manbalarida nima deb atalgan?

2. Qang`lar davlatiga kimlar tomonidan asos solingan?

3. Qang` davlatining asosiy shaxarlari qayerlarda joylashgan?

4. Qachondan boshlab Qang` qabilalari qudratli davlat birlashmalariga aylandi?

IV. Yangi mavzuni tushuntirish.

Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent viloyatining Oqqo`rg`on tumanidagi Qang`xa shaxar xarobasi saklarning o`sha kezdagi poytaxti Qang`dez bo`lib, unga miloddan avvalgi III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaxarni Bityan deb atashgan. Miloddan avvalgi II asr oxirida Qang` qabilalari eng qudratli davlat birlashmasiga aylanadi.

Uning xukmdorlari xatto o`z nomlaridan tanga zarb qiladilar.

Qang` davlatida ulkan istexkomlar qal`a, shahar ibodatxonalari, savdo va xunarmandchilik maxallalari barpo etiladi.

V. Guruxlarda ishlash:

Topshiriq:

“Antropologlar” guruxi-

Qang` davlatining markazi qaysi shahar edi?

“Etnograflar” guruxi-

Qang` davlatining gullab yashnashida nima katta rol o`ynagan?

“Lingvistlar” guruxi-

Qang` davlat axolisi qanday nom bilan atalgan?

VI. “Kim o`zar o`yini”

Qang`a – bu ...

Qang`uy – bu ...

Qang`dez – bu ...

Qang` – bu...

Darsni mastuhkamlash:

Qang` davlat birlashmalari xukmdorlari o`rtasida o`zaro munosabatlar qay tariqa rivojlangan.

Nechanchi asrga kelib Qang` davlat birlashmalari parchalanib ketdi.

VIII. Uyga vazifa:

1. Qang` davlati nechanchi asrlargacha xukmronlikni qo`lda ushlab turgan?
2. Ko`chmanchilar tomonidan qachon bosib olindi.
3. Yangi mavzu matni bilan tanishib kelish.

TURON VA ERON

Darsning maqsadi.

O`quvchilarda Turon va Eron davlatlari haqida tasavvur xosil qilish.

Siyovush va Afrosiyob haqida tushuntirish.

Turk qavmlari turk tilining xususiyatlarini ko`rsatib berish.

Turkiy qavmlarning xayoti, madaniyati va urf-odatlari haqida tasavvur xosil qilish.

Darsning jixozlari.

1. 5-sinf uchun "Tarixdan hikoyalar" darsligi.
2. "O`zbekiston tarixi" atlas.
3. Firdavsiyning "Shohnoma" asari.
4. Mahmud Qoshg`ariyning "Devonu lug`otit turk" asari.
5. Doska bo`r.

Tarqatma material.

Avval o`rganilgan va darsda o`rganiladigan asosiy atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

Darsning asosiy tushuncha va atamalari:

- Turon;
- turk;

- Siyovush;
- Afrosiyob.

DARS REJASI.

<i>№</i>	<i>Darsning bosqichlari</i>	<i>Vaqt</i>
I	Tashkiliy qism	2
II	O`rganilgan mavzuni takrorlash	10
III	Aqliy hujum	10
IV	Guruhlarda ishlash	10
V	Guruhlarda ishlash yakunlarini chiqarish.	8
VI	Darsga yakunlash	3
VII	Uyga vazifa	2

I. Tashkiliy qism.

Darsning mazmuni:

1. Turon va Eron
2. Siyovush va Afrosiyob
3. Turkiy qavmlarning hayoti, madaniyati va urf-odatlari.

II. O`rganilgan mavzuni takrorlash.

Uyga berilgan topshiriqlar va savollar bo`yicha o`tkaziladi.

1-QO`SHIMCHA MA`LUMOT.

O`qituvchi haritadan foydalangan holda Turon va Eron hududlarini o`quvchilarga ko`rsatib dars mavzusini boshlaydi. “Avesto” dan ma`lumki, ko`chmanchi qabilalarni “turk” deb, ularning istiqomat qiladigan joyni esa “turon” deb atashgan, yani “Turon” - ko`chmanchi qabilalar yashaydigan joy degan ma`noni anglatgan. Qadimda sak, massaget va dahlar ko`chmanchi chorvador qabilalar bo`lgan. Ular

uyushib, qudratli davlatlarni vujudga keltirgan. Keyinchalik Turon turkiy xalqlar yashaydigan o'lkada deb atalgan. Uning yonida Amudaryoning chap sohilidagi yerlar esa Eron nomi bilan mashhur bo'lgan. Eronda fors xalqlari yashagan. Ular ham o'ziga yarasha qadimiy madaniyatga ega xalqlardir. Turon va Eron davlatlari qo'shma davlat bo'lib, ular o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib turgan. Bu urushlarning sababini fors shoiri Firdavsiy o'zining mashhur "Shohnoma" asarida keltirib o'tadi. Firdavsiy va uning "Shohnoma" asari haqida o'quvchilarga qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

2-QO'SHIMCHA MA'LUMOT

Abulqosim Firdavsiy (taxt.940-1020 yy) buyuk fors shoiri. Asli ismi Hasan ibn Ishoq ibn Sharafshoh bo'lib, Tus dehqonlaridan bo'lgan (U davrda "dehqon" so'zi badavlat kishilarga nisbatan ishlatilgan). Tus hokimi Firdavs nomli g'oyatda go'zal bir bog' bunyod etgan. Shoirning otasi Ishoq ibn Sharafshoh ana shu bog'ning bog'boni edi. Shu munosabat bilan shoir o'ziga Firdavsiy tahallusini olgan.

U 35 yoshida G'aznaga kelgan va "Shohnoma" asarini she'riy uslubda bayon qilishga kirishgan. Bu asarni yozishda turkiy va forsiy xalqlarning afsonalaridan foydalangan. Asarning asosida yaxshilik bilan yomonlik to'g'risidagi kurash g'oyasi yotadi. Asarda makedoniyalik Iskandar yurishidan to sasoniylar saltanatining arab bosqinchilari tomonidan qulatilishigacha bo'lgan katta tarixiy davr yoritilgan. 33 yillik mehnatdan so'ng asar 994 - yilda yakunlangan. Shoir o'zining

qolgan umrini nochorlikda o'tkazdi. Taxminan 1020 - y. vafot etgan. U o'zining otasidan qolgan bog'ida dafn etilgan.

Shundan so'ng o'qituvchi Afrosiyob va Siyovush xaqidagi hikoyani so'zlab beradi. Turkiy qavmlarning xayoti, madaniyati va urf-odatlarini xaqida hikoya qilishdan avval Mahmud Qoshg'ariy va uning "Devonu lug'otit turk" nomli asari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi.

3-QO'SHIMCHA MA'LUMOT

Mahmud Qoshg'ariy - XX asrda yashab ijod qilgan ilk o'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan bo'lib, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi. U "Devonu lug'otit turk" asarining 1074-75 yilda tugallab, uni abbosiy xalifalar avlodidan bo'lgan Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlagan. Asar o'quvchilarga osonlik tug'dirish uchun sodda tilda yozilgan. "Devon"da 7500 dan ortiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar ushbu asar sahifalaridan o'rin olgan. Asarda dunyo xaritasi doira shaklida chizib ko'rsatilgan.

Xozirgi zamon jahon ilmiy jamoatchiligi XX asr buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariyning qiyosiy tilshunoslikning asoschisi deb tan oladi.

Mahmud Qoshg'ariyning yozishicha, turklar 20 qabiladan iborat bo'lgan, ular o'z navbatida ko'plab urug'larga bo'lingan. Sof turkiyda

soʻzlashadiganlarning tili eng toʻgʻri va aniq hisoblanib, ikki tilda soʻzlashadiganlarning tilida buzqlik boʻlgan. Turkiy xalqlarni boshqa xalqlardan ajratib turadigan jihati xam ularning tilidir. Turkiy til yaxshiligi va eʼtiborligi bilan boshqa tillar orasida alohida ajralib turadi. Ularning eng qadimiy alifbosi oromiy yozuvlariga asoslangan xarbiy yozuvlardan iborat boʻlgan. Maxmud Qoshgʻariy zamonida uni oʻrganishga intilish kuchli boʻlgan. Bunga sabab, amirlar va sarkardalarning koʻpchiligi turklardan boʻlgan. Hokimiyat ham ularning qoʻlida boʻlgan. “Turk” soʻzi – “kuch”, “qudrat”, “hokimiyat” kabi maʼnolarni anglatgan.

Turonda qimmatli mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

II Aqliy hujum.

Afrosiyob Siyovushni oʻldiradi. Boshqacha yoʻl tutishi mumkin edimi? Oqibati nimaga olib keldi? degan savolga javob aniqlanadi.

III Guruhlarda ishlash.

Oʻquvchilar guruhlariga boʻlinadi. Xar bir guruxga alohida topshiriq beriladi.

1-guruhga topshiriq.

Firdavsiy xaqidagi qanday maʼlumotlar esingizda qoldi? U xaqida yana nimalar bilasiz?

2-guruhga topshiriq.

Mahmud Qoshgʻariy xaqida nimalarni bilasiz?

3-guruhga topshiriq.

Nima sababdan XI asrda koʻpchilik turkey tilni oʻrganishga intilgan?

V. Guruhlarda ishlash yakunlarini chiqarish.

Doskaga quyidagi ismlar yoziladi va ular kimlar ekanligini o`quvchilardan so`raladi.

Eron:

Turon:

Kaykovus-...

Siyovush-...

Rustam-...

Gudraz-...

Gov-...

Afrosiyob-...

Kayxusrav-...

Piyrion-...

VI. Darsni yakunlash.

VII. Uyga vazifa.

Mavzu savollariga javob tayyorlash. Iskandar Zulkarnaynining istilochilik yurishlari mavzusi bilan tanishib kelish.

Mavzu: Lotin Amerikasi xalqlarining milliy ozodlik kurashi.

Darsning maqsadi:

-O`quvchilarga Lotin Amerikasi bugungi kunga osonlik bilan yetib kelmaganligi, mashaqqatli milliy-ozodlik kurashi olib borilganligi bilim berish;

-Bugungi Lotin Amerikasining jahonda tutgan o`rni xaqida ma`lumot berish;

-O`quvchilarni mustakil ishlash ko`nikmalarini ustirish;

Darsning jihozlari:

1.Jahon tarixi 8-sinf darslik

2.Dunyoning siyosiy xaritasi.

3.Lotin Amerikasi xaritasi.

4.Mavzuga oid adabiyotlar.

5.Vatman flomasteri.

6.Do`ska,bo`r.

7.Tarqatma materiallar.

Topshiriqlar va asosiy tushunchalar yozilgan kartochkalar.

Asosiy tushuncha va atamalar

- Ispaniya va Portugaliya mustamlakalari.
- Milliy ozodlik kurashlari.
- Mustakil davlatlar.

Darsning borishi.

I. Tashkiliy kism

- O`quvchilar e`tiborini darsga jalb etish.
- Navbatchilik "Kun tarixi" axboroti
- O`quvchilardan Ommaviy axborot vositalaridan AKSh haqida to`plab kelgan ma`lumotlarni so`rash.

II. O`tilgan dars mavzusi mazmunini takrorlash.

Bu vazifa kartochkalarga yozilgan quyidagi savol va topshiriqlar yordamida bajariladi.

- 1-k: AKShda sanoat inqilobi qachon yuz bergan?
- 2-k: Fermerlik qanday xo`jalik?
- 3-k: Plantatsiya xo`jaligiga ta`rif bering.
- 4-k: Ablitsionizm qanday harakat edi?
- 5-k: Jon Braun haqida nimalarni bilib oldingiz?
- 6-k: Nega janubda quldorlar qo`zg`olon ko`tardilar?
- 7-k: Nega fuqarolar urushining oldini olib bo`lmagan?
- 8-k: Fuqarolar urushi qanday natija bilan tugadi?
- 9-k: Shimol galabasining tarixiy ahamiyati

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushintirish.

Darsning bu bosqichi quyidagi reja asosida bajariladi.

- 1.Nega Lotin Amerikasi xalqlari milliy-ozodlik kurashiga ko`tarilmaganlar?
- 2.Kleorlar haqida
- 3.Mustaqil Mexsika davlatining tashkil topishi.
- 4.Simon Balivarning milliy-ozodlik kurashida tutgan o`rni
- 5.Venesuela, Argentina, Kuba va Urugvay Mustakilligi

IV. Guruhlarda ishlash

o`quvchilar 4-5 guruhga bo`linadi.

Guruhlarda ishlashdan maqsad-o`quvchilarning tayanch tushunchalar asosida mashq tuzish ko`nikmalarini o`stirish.

1-guruhga topshiriq

Ispaniya, Portugaliya, Lotin Amerikasi, Mutamlakalar, Kreollar, Nindukar, Negr qullar.

2-guruhga topshiriq

1810. Ommaviy qo`zg`olon. Mexsika. Idalgo.1811 yil 1821 va 1824 yil.

3-guruhga topshiriq

Venesuela. Simon. Bolivar. Xaloskor. Kreollar. Negrlar va hindular.
1819 yil Buyuk Kolumbiya. Ulkon. 1830 yil.

4-guruhga topshiriq

Argentina 1810 yil Xeson-san-Marshin.1822yil.1824 yil. 1826 yil. 1869 yil. Kuba. Braziliya. Peru. Mustakil. Milliy davlatlar

Javoblar tinglanidi, tuzatishlar kiritiladi, to`ldiriladi va baholanadi.

V. «Sanalar va sharhiy shaxslar o`rtasidagi bog`liqni aniqlash» uyini

Bu uyinni tashkil etish uchun o`qituvchi o`quvchilarga bir-biriga boglik sanalar yozilgankartochkalarni tarqatadi.

O`quvchilar shu sanalarda qanday bir-biriga bog`liq bo`lgan tarixiy voqealar yuz berganligini aniqlaydilar.

1-topshiriq

-1810 yil, 1811yil, 1821 yil, 1824 yil, Idalgo, Morekos(bu sanalar va tarixiy shaxslar Meksika tarixiga oid)

2-topshiriq.

-Simon Bolivar-1819-yil,1830-yil,(Venesuela tarixiga oid ma`lumotlar)

3-topshiriq.

-1810-yil,1816-yil, Xose san-Martin.(Argentina tarixiga oid)

4-topshiriq.

-1822-yil, Portugaliya (Braziliya tarixiga oid)

5-topshiriq.

-1824-yil,1930-yil,1869-yil,(Peru, Urugvay va Kuba tarixiga oid)

Javoblar tinglanadi, tuzatish va qo`shimchalar kiritiladi.

VI.Dars yakunlarini chiqarish.

Darsda nimaga erishganligini ta`qidlanadi.Faol o`quvchilar va guruhlar rag`batlantiriladi.

VII. Uyga vazifa:

Mavzu oxiridagi savollarga javob topib kelish.

Jahon tarixi 9- sinf

Mavzu: XIX asr ohiri va XX boshlarida Lotin Amerikasi davlatlari

Maqsad va o`quvchilarning oldingi mavzular,vazifalar yuzasidan bilimlarni tekshirish ularni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish.

O`quvchilarga Lotin Amerikasi davlatlar ularning joylashgan o`rni bu hudud nomiga Lotin Amerikasi deb nomlanishi bu hududda nimaga Ispanlar va Portugallar XIX asr ohiri XX asr boshlaridagi umumiy ahvol havqida ma`lumot berish.

O`quv materiali mazmuni

O`quvchilarda mavzu asosida bilim va ko`niklarmalarda shakllantirish, xotira bilan ishlash va bu davlatning joylashgan o`rni va shu davrdagi siyosiy ahvol haqida ma`lumot berish.

O`quvchilarning savol-javob,xarita bilan ishlash,(amaliy mao`g`ulot) orqali yangi mavzuni qay darajada o`zgartirilganligi nazorat qilinadi.

Shakl: Interfaol mashg`ulot,Suhbat – ma`ruza,yakka tartibda, kichik guruh, jamoa bo`lib ishlash.

O`quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi

Metod: “Aqliy xujum”, “Amaliy mashg`ulot”, “Kichik guruhlar bilan ishlash”, “Savol-javob test”

Vazifa: Darslik, Xarita,tarqatma savollar.

Nazorat: Kuzatish,nazorat savollari,nazorat testlari

Baholash: Rag`batlantirish,5 ballik tizim asosida

Kuzatiladigan o`qituvchi: Mavzu belgilangan vaqt ichida natijalar barcha o`quvchilar tomonidan o`zlashtiriladi,o`quvchilarning darsda faolligi oshadi. Ularda fanga nisbatan qiziqish uyg`onadi. Amaliy mashg`ulotlarni mustaqil bajaradilar,barcha o`quvchilar yakka tartibda baxolanadi, boshqalarga yetkazish savol va javob berishga o`rgatiladi.

O`quvchi: Mavzu yuzasidan yangi bilimga ega bo`ladilar.

Guruhlar bilan ishlashni o`rganadilar,eslab qolish,ayta olish, ko`nikma olish va malakalarga ega bo`ladilar.

Kelgusi rejalar:

O`qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o`zlashtiradi va darsda tadbiq etish,takomillashtirishga erishadi,o`z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog`laydi va solishtiradi.

O`quvchi: Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashni o`rganadi.

Mashg`ulotning borishi.

Darsning tashkil etish shakllari.

A) Salomlashish

B) Davomat aniqlash

S) Ob-Havo so`rash

D) Uyga berilgan topshiriqlarni tekshirib chiqish

Dars uslubi: Savol-javob, guruhlarga bo'lish suhbat

Dars rejasi:

1. O'qituvchining kirish so'zi (1 daqiqa)
2. Guruhlarda bo'linish (2 daqiqa)
3. "Geografik diktant" orqali uyga berilgan mavzu yuzasidan bilimlarni tekshirish (8 daqiqa)
4. Yangi mavzu bayoni (12 daqiqa)
5. Yangi mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar (6 daqiqa)
6. Guruhlar taqdimoti (8 daqiqa)
7. Mavzuni mustaxkamlash (2 daqiqa)
8. O'quvchilarni rag'batlantirish va baxolash (2 daqiqa)
9. Uyga vazifa (2 daqiqa)

1. O'qituvchining kirish so'zi (1 Daqiqa)

Darsnig taxlil etilishi

A) Salomlashish ,davomatni aniqlash

B) O'quvchilarni darsga xozirlab, jonli muhit yaratish

2. Guruhlarga bo'lish (2 daqiqa)

O'quvchilar 3ta guruhga bo'linadi

I-guruh Meksika

II-guruh Modero

III-guruh Kuba

O'quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi.

Oltin qoidalar:

1. faollik
2. vaqtga rioya qilish
3. aytilgan fikrini takrorlamaslik
4. o'zaro xurmat
5. to'g'ri javob uchun rag'bat
6. o'ng qo'l qoidasi
7. bir yoqadan bosh chiqarish
8. intizom

Ishlab chiqilga oltin qoidalar doska chetiga osib qo'yiladi

3 Geografik diktanti

- 1) Amerika qit'asi shartli ravishda.....bo'lindi (Shimoliy va Janubiy Amerika)
- 2) Ponama qurilishi tugallandi (1914 yilda)
- 3) 1912 yilda prezident Past siyosati e'lon qildi (dollar diplomatiyasi)
- 4) "Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" doktrinasini 1899 yilda "AKSh davlat kotibi.....tomonidan yuborilgan (xey)
- 5) Bir davlatning boshqa davlatga yozgan rasmiy murojatnomasi-(Nota)

4 Yangi mavzu bayoni Amerika qit'asi shartli ravishda Shimoliy va Janubiy Amerikaga bo'lindi. Janubiy Amerika atamasi o'rniga ko'pincha "Lotin Amerikasi, iborasi ham ishlatiladi. Janubiy Amerikani Ispanlar va Portugallar istilo qilgan. Ularning tili lotin tilidan kelib chiqqanligiga nisbatan bosilib, Janubiy Amerika Lotin Amerikasi deb atalgan. Shimol va Janubning taraqqiyoti bir xil kechgani yuk. AKSh hududi rivojlanib ketdi. Lotin Amerikasi taraqqiyotida orqada kolib ketdi. Bunga asosiy sabab Lotin Amerikasini davlatlarini tashkil yetgan qukmron doiralar va ularning vakili bulgan siyosiy arboblari kelib chikishiga Ispanyalik va Partugalyaliklar bulganligi bilan izoxlandi chunki bu davirda G'arbiy Yevropaning iktisodiy jixatidan taraqqiyotida orkada kolgan davlatlar edi. Yaani bu hududlarning orkada kolishiga jamiyatda o'rta asr faol tartiblarning hamon saklanib kelayotganligi edi Bu hududda joylashgan davlatlar o'z mustaqilligi uchun kurashildi. Bu mamlakatlarning yani Argentina Chili Urugvay Venetsuela va Kolumbiya kabi davlatlarning qoloqligidan Buyuk Britaniya, Fransiya, AKSh va Germaniya kabi buyuk davlatlar foydalanib, kapitla ko'p kiritdilar. Eng ko'p kapitalni Buyuk Britaniya kiritgan. 1868-1878 yilda Kuba Ispaniya mustamlakasiga qarshi kurashdi. 1880 yilda qulchilikning bekor qilinishiga erishdi. Kubaga AKSh da'vo qildi. U Kubani sotib olishga rozi bo'lmadi. 1895 yilda Kuba qo'zg'olon ko'tardi. Uning milliy qaxramoni Xose Malti hamda Maksimo Gomeslar boshchiligida qo'zg'olon ko'tardi. 1898 yilda Kuba mustaqil deb e'lon qilingan bo'lsa ham amalda AKShga qaram bo'ldi. Ana shu davrda Meksikada ham turli xil jarayonlar kechmoqda edi. AKSh Meksikaga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. AKSh Meksikaning neft konlarini o'z qo'lga oldi. Tashqi savdoning 90% neft

konlari qo`lida edi. 1909 yilda Meksikada Hosil bo`lmadi. Oqibatda dehqonlar g`alayoni boshlando`i. Dehqonlar xarakatiga Emiliano Sopata boshchilik qilgan. Uning shiori “er va ozodlik” degan chaqiriqdan iborat edi. 1917 yillarda qo`zg`olon boshlandi. E. Sopata va F. Vilyalar turli yillarda yollangan qotillar tomonidan o`ldirildi. Keyinchalik bu qo`zg`olon izsiz ketmay asta sekinlik bilan dehqonlarga yer bo`lib berildi.

5 Darsni mustahkamlash uchun savollar

I-guruhga savollar

- 1) Diktatura nima?
- 2) Lotin Amerikasi taraqqiyotining orqada qolib ketishi sabablari?
- 3) Bugungi Meksika Respublikasi haqida ma`lumot bering

II-guruhga savollar

- 1) Muxolifat nima?
- 2) Kuba qanday xolatda amalda qaram bo`lib qoldi?

III-guruhga savollar

- 1) Uerta diktaturasi nimadan iborat bo`lgan
- 2) AKSh nima uchun Lotin Amerikasi davlati chora va tadbirlarni qo`lladi.
- 3) Xozirgi Kuba haqida umumiy ma`lumot bering

6 Guruhlar taqdimoti

7 Mavzuni mustahkamlash

O`tilgan mavzu bo`yicha o`qituvchi tomonidan o`quvchilarning taqdimoti yakun yasaydi va o`quvchilar tomonidan berilgan javoblardagi keamchiliklarni to`ldirib guruhlarining to`g`ri javobi uchun rag`bat bayroqchasi berildi.

8 O`quvchilarni rag`batlantirish va baxolash dars yakunila guruh o`quvchilar to`plangan ballari sanalib, g`olib guruh aniqlandi va rag`batlantiriladi. Guruhlarga darsdagi ishtirokiga qarab “Eng intizomli guruh”, “Eng xamjixat guruh”, “Eng chaqqon guruh” nominatsiyalari o`z egalariga topshirildi.

9 Uyga vazifa

- 1.Yozuvsiz xaritaga Lotin Amerikasi davlatlari o`rnini tekshirish kelish
- 2.Jadvalni to`ldirish.

	Davlatlar nomi	Poytaxt	Yetishtiriladigan mahsulot
1	Meksika		
2	Venesuela		
3	Kuba		
4	Kolumbiya		
5	Braziliya		

Jahon tarixi 9-sinf

Dars mavzusi : Shimoliy tropik va Janubiiy Afrika mamlakatlari.

Maqsad va vazifalar:

O`tilgan mavzular yuzasidan bilimlarni tekshirish,o`quvchilarni yangi atama va tushunchalar bilan tanishtirish.

O`quv materiali mazmuni:

O`quvchilarda mavzu asosida bilim va ko`nikmalarni shakllantirish,ularni xaritalar bilan ishlab,ularni tarix faniga qiziqishlarini uyg`otish.

Kutiladigan natija:

Mavzu bo`yicha yangi tushunchalarga ega bo`lish.

Darsning maqsadi:

Ta`limiy: O`quvchilarga yangi mavzu bo`yicha tushunchalar berib,ularni bilim ko`nikmalarini mustaxkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarni yetuk,erkin fikrlash,o`z fikrini ifoda eta oladigan shaxslar bo`lishga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: Tarix fanidan bilimlarini mustaxkamlab yangi bilimlarni egallash.

Dars tipi: Yangi bilimlar berish.

Dars turi: Noan`anaviy.

Dars metodi: Suxbat,ko`rgazmalilik,katta guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: Dunyoning siyosiy xaritasi,tarqatmalar,kartochka,o`quv darsligi.

Darsning borishi:

A) Darsni tashkil qilish, guruhlar bo`lish (3 daqiqa)

B) O`tilgan mavzuni mustaxkamlash(10 daqiqa)

S) Yangi mavzu bayoni (20 daqiqa)

D) Darsni mustaxkamlash (5 daqiqa)

E) Uyga vazifa (2 daqiqa)

Yangi mavzu bayoni

Reja

1. Shimoliy Afrikaning ijtimoiy va siyosiy hayoti.
2. Mahdiylar qo`zg`oloni.
3. Tropik va Janubiy Afrika haqida.
4. Sharqiy Afrikaning bo`lib olinishi.
5. Buyuk Britaniya va Birlar Respublikasi o`rtasidagi urush.

Afrikaning Shimoliy qismida Saxroi Kabrning janubiy chegarasiga qadar aholining ko`pchiligini arablar tashkil etadi. XIX asrning 70-yillariga qadar Afrikaning shimolida va shimoli-sharqida ya`ni arablar yashovchi xududlarida mutlaq podsholik tuzumlari xukm suradi.

XIX asr oxirida Misr va Sudan-Buyuk Britaniyaning, Tunis,Jazoir va Marokash-Fransiyaning,Marokashning bir qismi-Ispaniyaning, Liviya esa Italiyaning mustamlakalariga aylandi. 1871 yilda Jamoliddin al-Afg`oniy “Xizb ul-vatan”partiyasini tuzdi.Bu partiya chet elliklarga qarshi “Misr-misrliklarniki”shiori ostida kurashdi.

XIX-asr oxiri-XX-asr boshlarida Sharqiy Sudan Misr qaramog`ida edi.1881-yilda Sudanliklarning yetakchilari Muxammad xalqni Misr-Turk zulmiga hamda Yevropaliklarga qarshi muqaddas urushga chaqirdi.

1882-yilda Xartumga Misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib saylandi.

1885-yilda Sudanda mustaqil mahdiyalar davlati tuzildi.

1883-yilda Tunisda Fransiya xukmronligi o`rnatildi.

1905-1906 yillarda Jazoirda mustamlaka zulmiga qarshi kurash boshlandi.

1912-yil Yosh jazoir” partiyasi tuzildi.

1900 yili Italiya Fransiyaning Marokashga nisbatan “hududlarini”tan oldi.

1907-yilda Marokash shahrida Fransuz vrachi o`ldirildi.

1911-yil 5-noyabr kuni Liviya Italiya mulki deb e`lon qilindi.

1877-yilda Fransvaalni bosib oldi va Zululendni ham o`ziga qarashli mustamlaka deb e`lon qildi.

XIX-asr oxiri XX-boshlarida Fransiya,Gollandiya va buyuk Britaniya o`rtasida raqobat maydoniga aylandi.Buyuk Britaniya Fransiya dan keyin Belgiya ham Afrika yerlari uchun kurashga qo`shildi.

1883-yilda Kongo xavzasidagi yerlar Belgiya mustamlakasi deb e`lon qilindi.Janubiy Afrikada dunyoning eng yirik olmos konlari bor edi.Ingliz korchaloni Sesil Rods “De Rods” kompaniyasini tuzib, olmos konlarini o`z qo`liga kiritdi.

1910-yili Buyuk Britaniya mustamlaka hududlari bo`lgan Fransvaal,Oranj,Natal, “Janubiy Afrika ittifoqi” nomi ostida birlashtirdi.

1883-yili Fransiya Madakaskarga urush e`lon qildi.

Janubiy Afrikaning shimoli-g`arbiy qismi 1883-yildan boshlab Germaniya tomonidan bosib olina boshlandi.(1905-yilda jangda)Namalarning qo`zg`oloniga Xendrik Vitboy boshchilik qilib,1905-yilda jangda xalok bo`ldi.Germaniya bosqinchilari 200000dan ortiq namalardan 140minggini qirib tashladilar.Germaniyaga qarshi sharqiy afrikaning janubi va markazida 1905-yilda boshlangan qo`zg`olon 2 yildan ortiq davom etdi.Nemis qo`shinlari 120ming afrikaliklarni qirib

tashlab, qo'zg'olonni bostirdilar. Bu hududda necha asrlardan buyon yashab kelgan katta-katta qabilalar yo'q bo'lib ketdi.

Guruhlarda ishlash:

1 guruh Shimoliy Afrikada Arab davlatlari qay tarzda Turkiya mustamlakasiga aylandi.

2 guruh Shimoliy Afrikada qaysi buyuk davlatlarning manfaatlari to'qnashgan.

3 guruh Misr xalqining milliy ozodlik kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?

1 guruh Mahdiylar qo'zg'oloni haqida gapiring.

2 guruh Janubiy Afrikada nega buyuk davlatlar manfaatlarning to'qnashuviga sabab bo'lgan?

3 guruh G'arbiy Afrikada qaysi buyuk davlatlar manfaatlari to'qnashgan?

1 guruh Namalar qo'zg'oloniga kim boshchilik qildi?

2 guruh Germaniya bosqinchilari qanchadan ortiq namalarni qirib tashladilar?

3 guruh Namalar qo'zg'oloni necha yil davom etdi?

Darsni mustaxkamlash savol-javob asosida

1. Buyuk Britaniya Iskandariyaga qanday zulm o'tkazdi?

2. Italiya Liviyaga qarshi bosqinchilik kurashini qaysi yili boshladi?

3. Tunisda Fransiya xukmronligi qachon o'rnatildi?

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib o'rganish, shu hududni xaritaga tushirish.

Mavzu: O'zbekistondagi eng qadimgi qadimgi tarixiy shaharlar
I-Darsning borishi

A) O'quvchilarga qadimiy shaharlar to'g'risida DTS talablari asosida tushuncha berish;

B) O'quvchilarni madaniy merosimizga xurmat ruhida tarbiyalash;

S) O'quvchilarni yodda saqlash qobiliyatini rivojlantirish;

II-Dars jihozi: shaharlarning suratlari,xarita.

III-Dars uslubi: aralash.

IV-Darsni tashkil qilish:

A) Salomlashish V) Davomat S) O`tilgan mavzuni takrorlash.

1. Temuriylar davlati qachon asos solindi?

2. Amir Temur qurdirgan me`moriy obidalar?

3. Amir Temur Bog`lari haqida ayting?

Temuriylar davrida madaniyat qanday rivojlandi?

V-Yang mavzu rejasi:

1. Samarqand shahri.

2. Buxoro shahri.

3. Xiva shahri.

4. Qarshi shahri.

5. Termiz shahri.

6. Marg`ilon shahri.

VI-Yangi mavzu bayoni:

Samarqand O`zbekistonning eng qadimgi shaharlaridir. 2007 yilda Samarqandning 2700 yillig xalqaro miqyosda nishonlandi. Shahar “Amir Temur ordeni” bilan taqdirlandi. Gretsiya tarixchilari shaharni Marokanda deb ataganlar. Samarqand miloddan avvalgi IV asrdan So`g`d davlatining poytaxti bo`lgan. Samarqand Amir Temur davlatining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo`ldi va “Abadiy shaharlar” qatoridan o`rin oldi. Samarqand “Dunyoning xusni” deb ulug`landi.

Buxoro shahrining nomi “Tangri jamoli” degan ma`noni anglatadi. 1997 yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi nishonlandi. Buxoro dastlab IX-X asrlarda, keyin XVI-asrdan mamlakat poytaxti maqomiga ega bo`lgan. Bugungi kunda Buxoro shahrida yuzdan ortiq yirik tarixiy me`moriy yodgorliklar saqlanib qolgan.

Xiva hozirgi Xorazm viloyatidagi shahar. 1997-yilda Xivaning ham 2500 yilligi nishonlandi. Unga nisbatan “Bing gumbaz shahri” iborasi ham ishlatiladi. Shahar 1967-yilda qo`riqxonah-shahar deb e`lon qilingan. 1990-yilda Jahon merosi ro`yxatiga kiritilgan.

Qarshi shahri yoshi jihatidan Samarqanddan keyin ikkinchi o`rinda turadi. U dastlab Naxshab, keyinchalik Novtak va Nasaf nomlari bilan atalgan. XIV asrdan Qarshi deb atala boshlangan. Shahar VII asrda bunyod etilgan. 2006-yilda shaharning 2700 yilligi nishonlandi.

O`zbekistonning yana bir qadimiy shaharlaridan biri Termizdir. Bu nom “Jar soxilidagi manzil” degan ma`noni anglatadi. Shahar O`rta Osiyoning yirik xunarmandchilik va savdo markazi bo`lgan. 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

VII. Mustaxkamlash. Guruhlarda ishlash.

1-guruh: Samarqand shahri.

2-guruh: Buxoro.

3-guruh: xiva.

4-guruh: Termiz.

5-guruh: Qarshi.

6-guruh: Marg`ilon.

VIII. O`quvchilarni baholash.

VIII. Uyga vazifa: o`qib kelish.

Mavzu: Tarixda yil xisobi.

I. Maqsad:

A) O`quvchilarga mavzu to`g`risida DTS talablari asosida tushuncha berish.

B) O`quvchilarni O`tmish tariximizga hurmat ruhida tarbiyalash.

S) O`quvchilarni og`zaki fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

II. Dars jihozi: A4 qog`ozi, jadval, kalendarlar.

III. Dars uslubi: aralash

IV. Darsni tashkil qilish:

A) Salomlashish B) Davomat S) O`tilgan mavzuni takrorlash.

1. Trixiy manba deb nimaga aytiladi?

2. Moddiy manbalarga nimalar kiradi?

3. Yozma manbalarga nimalar kiradi?

4. “Xronologiya”ning ma`nosi?

5. “Milod” va “Era” tushunchalariga izoh bering.

V. Yangi mavzu rejasi:

1. Kalendar tarixi.

2. Kalendarining vatani.

3. Yuliy kalendari.

4. Grigoriy kalendari.

5. Xijriy yil hisobi.

VI. Yangi mavzu bayoni:

Kalendar-vaqtning kunlarga, haftalarga, oylarga va yillarga bo`lib hisoblanishidir. Dastlabki kalendar qadimgi Misrda yaratilgan. Misrliklar Nil daryosining toshqinlari oralig`ini hisoblab, 365 kunni belgilaganlar. Uni 12 oyga bo`lib, qolgan 5 kunni yil oxiriga qo`yganlar. Shu tariqa ilk kalendar yaratilgan. Biroq Misrliklar kalendarida 6 soat xatolik bo`lib, bu to`rt yilda bir sutkani tashkil etgan.

Miloddan avvalgi 46-yilda Rim davlati xukmdori Yuliy Sezar o`z nomi bilan ataluvchi Yuliy nomli kalendarni yaratgan. Bu kalendarda oylar 31 va 30 kundan fevral oyi 28 kundan, 4 yilda bir marta 1 marta 29 kundan belgilangan. Biroq Yuliy kalendarida ham xatolik bo`lib, bu xato 400 yilda 3 kunga orqada qolishni keltirib chiqargan. Natijada bu xatolikni Italiyalik Grigoriy tuzatgan. Yangi kalendar Grigoriy kalendari deb atalgan. Xozir yer yuzining ko`p davlatlarida yil xisobi Grigoriy kalendari bo`yicha olib borilmoqda.

VII. Mustaxkamlash: guruhlarda ishlash.

1-guruh: Kalendar haqida tushuncha bering.

2-guruh: Yuliy kalendari haqida ayting.

3-guruh: Grigoriy kalendari haqida ayting.

4-guruh: Xijriy yil xisobi haqida ayting.

VIII. O`quvchilarni baholash.

IV. Uyga vazifa: Mavzuni o`rganib kelish, savollarga javob berish.

FAN: O`ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI

Sinf: 8

Mavzu: Huquqbuzarlik.

Darsning maqsadi:

- huquqbuzarlik tushunchasi haqida bilimlar berish;
- o`quvchilarni qonunlarga amal qilgan holda yashab, jamiyatga va davlatga munosib xizmat qiladigan fuqaro sifatida tarbiya qilish
- o`quvchilarda huquqbuzarlikni keltirib chiqaradigan omillar va uning oqibatlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

Dars turi: mavzu bo'yicha yangi bilim berish

Dars metodi : klaster, "O'z-o'zingni bahola " testi, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar

Darsda foydalaniladigan jihozlar:

- Darslik;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi.
- Slaydlar, tarqatma, qog'oz, marker, doska ,bo'r

Mavzuning asosiy tushunchalari:

- Huquqbuzarlik;
- ijtimoiy xavflilik;
- huquqqa zidlik;
- ayblilik;
- jazoga loyqlik;
- intizomiy huquqbuzarlik;
- fuqarolik huquqbuzarligi;
- jinoiy huquqbuzarlik;
- jinoyat;

Darsning bosqichlari va vaqt taqsimoti:

	Darsning borishi	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qisim	3daqqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	8 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	20 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	9 daqiqa
5	O'quvchilarni baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa berish	2 daqiqa

1.Tashkiliy qism:

- 1)Sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish
- 2)Davomatni aniqlash

2.O'tgan mavzuni takrorlash:

Takrorlash uchun "O'z-o'zini bahola" yoki "Vijdon" testi o'tkaziladi. Bunda o'quvchilarga slaydda o'tgan mavzu bo'yicha testlar ko'rsatiladi va barcha o'quvchi daftarlariga o'z javoblarini belgilab olishadi, ular belgilab bo'lgach to'g'ri javob ko'rsatiladi. O'quvchilar o'zlari belgalagan testlarini o'zlari vijdonan tekshiradi. Tekshirib bo'lganlaridan keyin o'qituvchi ularni ko'rib chiqib to'g'ri ishlagan o'quvchilarni rag'batlantiradi va o'tgan mavzu qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlaydi.

Beriladigan testlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasi qonunlari necha guruhga bo'linadi?
A) 3 guruhga B) 4 guruhga C) 5 guruhga
- 2) Qonun vaqt bo'yicha qanday tartibda kuchga kiradi?
A) rasman e'lon qilinganidan 10 kun o'tgach
B) qonunda yoki maxsus hujjatda ko'rsatilgan vaqtdan boshlab
C) Hammasi to'g'ri
- 3) Qonun vaqt bo'yicha qanday o'z kuchini yo'qotadi?
A) qonunning o'zida ko'rsatilgan muddat tugagan bo'lsa
B) ushbu qonun bekor qilinishi natijasida
C) Hammasi to'g'ri
- 4) Qonunlarga amal qilinish qanday bo'ladi?
A) Zamonda amal qilinishi
B) Makonda amal qilinishi
C) A va B javoblar to'g'ri
- 5) Qonun osti hujjatlari qaysilar?
A) Prezident farmonlari, hukumat qarorlari
B) Hukumat qarorlari, boshqa ijro organlarining normative hujjatlari
C) Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, boshqa ijro organlarining normativ hujjatlari.

3.Yangi mavzuni bayoni:



REJA:

1. Huquqbuzarlik tushunchasi.
2. Huquqbuzarlikning belgilari.
3. Huquqbuzarlikning turlari.

1. Mazuga oid asosiy tushuncha doskaga yoziladi.
O'quvchilar shu tushunchani izohlovchi tushunchalarni yozadi.

O'g'irlik

huquqbuzarlik



2. Guruhlarda ishlash uchu o'quvchilar oldindan bo'linib olingan bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlash uchun o'quvchilarga topshiriqlar tarqatiladi. Har bir guruhga alohida beriladi .

1-guruhga huquqbuzarlik tushunchasiga ta'rif berish. Buning uchun ularga qog'ozlar va marker ,rangli qalamlar beriladi.

2-guruhga huquqbuzarlikning belgilarini aytish va ularni izohlash. Yozish uchun ularga qog'ozlar beriladi.

3-guruhga huquqbuzarlikning turlarini aytish.

4-guruhga huquqbuzarlikni ko'rsatuvshi sahna ko'rini tayyorlash beriladi .

O'quvchilar tayyorlanishi uchun 2 daqiqa vaqt belgilanadi. Vaqt tugagandan keyin guruhlar taqdimotga chiqib o'z fikrlarini bayon qilishadi ,tayyorlagan sahna ko'rinishlarini namoyish qilishadi. Shular asosida o'qituvchi o'quvchilar aytmagan fikrlarni aytib huquqbuzarlik tushunchasi tushuntiriladi.

HUQUQBUZARLIK-o'z xatti-harakatlarini tushunadigan va unga javob bera oladigan shaxsning huquqqa zid xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybidir.

Huquqbuzarlikning quyidagi belgilari mavjud:

- ijtimoiy xavflilik;
- huquqqa zidlilik;
- ayblilik;
- jazoga loyiqlilik.

Ijtimoiy xavflilik shundan iboratki ,bunda huquqbuzar jamiyatning qadriyatlariga tajovuz qiladi,inson hayotiga suiqasd qiladi,davlat va boshqa insonlarga zarar yetkazadi,ularning mol-mulkini nobud qiladi hamda noxush hodisalar keltirib chiqarib,jamiyat a'zolari manfaatiga zarar keltiradi.

Huquqqa zidlilik-huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo'ygan majburiy talablarini buzishdir.

Ayblilik o'z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan insonning huquqqa zid , qonun talablariga qarshi xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybidir.

Jazoga loyiqlilik-bu har qanday huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi,jazo esa huquqbuzarlik sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan,huquqbuzarni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilishdan iborat majburlov chorasidir.

Huquqbuzarlik to'rt guruhga bo'linadi:

- 1.Intizomiy huquqbuzarlik
- 2.Fuqarolik huquqbuzarlik
- 3.Ma'muriy huquqbuzarlik
- 4.Jinoiy huquqbuzarlik

Intizomiy huquqbuzarlik-xizmat burchini bajarib turganda har qanday mahnatda majburiy bo'lgan maehnat tartib –qoidalarining va rahbarlikka bo'ysunish tamoyillarining buzilishi.Masalan,ishga,o'qishga kach qolish,ishga yoki o'qishga sababsiz kelmaslik va shu kabilar.

Fuqarolik huquqbuzarligi-insonlarning mulkiga yoki shaxsiga qarshi qonunga xilof harakat(yoki harakatsizlik) natijasida yetkazilgan zarardir.Masalan bir shaxsdan qarz olb qaytarmaslik.

Ma'muriy huquqbuzarlik-qonunga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan ,fuqarolarga,tabiyy muhitga nisbatan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikdir.Masalan,mayday bezorilik.

Jinoiy huquqbuzarlik-jinoyat sodir etish,yani o'g'irlik,talonchilik,odam o'ldirish,militsiya xodimiga qarshilik ko'rsatish va boshqalar.

4.Yangi mavzuni mustahkamlash:

Har bir guruhga huquqbuzarlikning bir turini ko'rsatuvchi vaziyatlar tuzish beriladi boshqa guruhlar uni muhokama qilishadilar.

- 1-guruh -ijtimoiy huquqbuzarlikka
- 2-guruh –fuqarolik huquqbuzarlikka
- 3 guruh –ma'muriy huquqbuzarlikka
- 4 guruh-jinoiy huquqbuzarlikka

5.O'quvchilarni baholash :

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarni baholaymiz va eng faol guruhni ham e'lon qilamiz.

6.Uyga vazifa berish:

Mavzu bo'yicha savollarga javob yozish va keyingi mavzuga tayyorlanish .

FAN: KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ASOSLARI

Sinf: 9-sinf

Mavzu: Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: Huquqning o'zi nima ekanligi, konstitutsiyamizda shaxs huquq va erkinliklarining kafolatlanishi haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: o'z huquqlarini anglovchi munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalash, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning muhim shartlarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi: Huquq va burchlarni bajarishga ko'nikma hosil qilish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi

Darsda qo'llaniladiga metodlar: Tarmoqlar metodi(klaster)

Darsda foydalaniladigan jihozlar:

- 9-sinf "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" darsligi;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- vatman qog'ozi, marker, skotch;

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism

Salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash, o'quvchilarni guruhlarga bo'lish uchun sinfga kirishda ularga turli raqamlar yoki tasvirlar tushirilgan kartochkalar beriladi va ushbu raqam yoki tasvir qo'yilgan stol atrofiga o'tirish taklif etiladi.

II. O'quvchilarni o'tilgan mavzularni takrorlash asosida yangi mavzuga tayyorlash bo'yicha savollar

Faollashtiruvchi savollar:

1. Fuqarolik nima ?
2. Fuqarolikga ega bo'lish asoslari ?
3. Fuqarolikni yo'qotish asoslari ?

III. Yangi mavzu bayoni:

Huquq – davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan qonun-qoidalar, me'yorlar majmui (yig'indisi).

Huquq – kishiga biror ish-harakat uchun berilgan davlat qonunlari yoki boshqa hil hujjat-qarorlar bilan mustahkamlangan, kafolatlangan imkoniyat, erk, ixtiyor hamdir.
--

Sizlar radio, televidenie, gazeta va boshqa axborot vositalari orqali «Birlashgan Millatlar Tashkiloti» degan so'zlarni ko'p bora eshitgansiz. Bu - dunyodagi o'zining millati uchun qayg'urgan mamlakatlarning birlashgan, ya'ni bir bo'lib xaqqaro hujjatlar qabul qiladigan jahondagi eng yirik tashkilotdir. Mana shu

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da va boshqa bir qator xalqaro hujjatlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari e'lon qilingan hamda kafolatlangan

Quyidagilar izohlab o'tiladi. Bu ma'lumotlar slaydalar orqali beriladi.

- Yashash huquqi;
- Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- Aybsizlik prezumpsiyasi;
- Qadar-qimmat va shaxsiy hayotga tajovvuzdan himoyalanish huquqi;
- Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish;
- Turar joy daxlsizligi;
- Fikr, so'z va e'tiqod erkinligi;
- Vijdon erkinligi;


IV.Mavzuni mustahkamlash

Klaster metodidan foydalanamiz.

Quyidagi chizma doskaga chizib qo'yiladi.

O'quvchilar o'z tushunchalarini chiqib yozadilar yozadilar.

O'qituvchi umumlashtiradi



V.Baholash

VI. Uyga topshiriq beriladi va dars yakunlanadi.

Konstitutsiyada insoniylik huquqlari va inson manfaatlaridan kelib chiqqan adolatli qoidalar ifodalanadi. Bu haqda kelgusi darsimizda suhbatlashamiz. Bugun sizlar bilan tanishgan konstitutsiyada belgilab qo'yilgan inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ularning himoya qilinishi va yordam bilan ta'minlanishi, ularning sog'lom va har tomonlama kamoloti uchun zarur bo'lgan qoidalar aniq qilib aniq qilib belgilab qo'yilgan. Bularni sizlar qoidalarni o'qib, tushunib guvohi bo'ldingiz.

Fan: Konstitutsiyaviy huquq asoslari

Mavzu: O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit .

Sinf: 9

Darsning maqsadi:

- O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit tizimining huquqiy asoslari haqida ma'lumot berish.
- O'quvchilarning davlatning iqtisodiyot sohasidagi faoliyatiga dahldorlik hissini yuksaltirish.
- O'quvchilarning qadrlash hissini shakllantirish

Dars turi: Aralash

Dars uslubi: Aqliy hujum, "3x4" texnologiyasi.

Tushunchalar va atamalar:

- Moliya tizimi;
- Kredit;
- Bank tizimi;
- Davlat budjeti;
- Soliq;
- Tadbirkorlik;
- Davlatning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati:

Darsning jihozi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- darslik;
- tarqatma materiallar;
- A-3, A-4 formatdagi qog'oz, flomaster.

Darsning bosqichlari va vaqti:

1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni takrorlash	7 daqiqa
3	Yangi mavzuni bayoni	12 daqiqa
4	O'tilgan mavzuni mustahkamlash.	15 daqiqa
5	Baholarni e'lon qilish	5 daqiqa
6	Uyga vazifa	3 daqiqa

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism

Salomlashish, davomatni aniqlash, o`quvchilarni darsga tayyorlash, o`quvchilarni guruhlariga bo`lish.

II. O`quvchilarni o`tilgan mavzularni takrorlash asosida yangi mavzuga tayyorlash bo`yicha savollar

Fanlar bilan bog`lash:

Iqtisodiy bilim asoslari

Savollar:

- 1.Prokuratura organlari nima maqsadda tuziladi ?
 - 2.O`zbekiston Respublikasi Prokuratura tizimini aytib bering ?
 - 3.Prokurorlarning qanday vakolarlari bor ?
- O`qituvchi berilgan javoblarni umumlashtiradi.

III.Yangi mavzu bayoni:

O`qituvchi yangi mavzuni quyidagicha(namuna) qisqa ma`ruza asosida bayon qiladi:

Bugun Respublikamizda yashab turgan har bir kishida o`z korxonasini ochish, tadbirkorlik bilan shug`ullanish va shu tariqa o`z farovonligini ta`minlash imkoniyati yuzaga keldi. Ushbu imkoniyat konstitutsiyaning 53- moddasida quyidagicha mustahkamlangan, ya`ni “Davlat iste`molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiyl mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdalarda mulkidan mahrum etilishi mumkin”.

Shunday qilib huquq iqtisodiyotga quyidagicha ta`sir o`tkazadi:

- shakllangan iqtisodiy munosabatlarni qonunlar asosida mustahkamlab qo`yadi;
- mamlakat iqtisodiy barqarorligini tan oladi va mustahkamlaydi;
- yangi iqtisodiy munosabatlar yaratilishi va rivojlanishiga ko`mak beradi.

Har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishida uning moliya tizimi katta rol o`ynaydi, banklar, kredit uyushmalari, jamg`arma kassalar va boshqa turli xil tashkilotlar davlatning moliya tizimini tashkil etadi.

Davlatning iqtisodiy o`sishi, o`z zimmasidagi vazifalar - ta`lim berish, mamlakat chegaralarini qo`riqlash, davlat ichkarisida tartib saqlash, davlat organlarining ishini muvofiqlashtirish, aholining yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilishi uchun barcha yuridik va jismoniy shaxslardan soliqlar undiriladi. Undirilgan soliqlar yordamida davlat budjeti shakllantirildi.

Davlat budjeti - davlatning bir yillik daromadlari va harajatlari rejalashtirilgan asosiy moliyaviy hujjatdir.

O`zbekistonning pul tizimi rasmiy pul birligini, pul muomalasi tashkil etilishi va tartibga solinishini o`z ichiga oladi. 1994 yil 1 iyuldan boshlab, rasmiy pul birligi-so`m muomalaga kiritilgan.

1994 yil 15 noyabrdan e'tiboran Respublika hududida barcha to'lovlar va hisob-kitoblar faqat milliy valuta so'mda amalga oshiriladi.

O'zbekistonda moliyaviy – iqtisodiy, budget, bank kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlanishini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zahiralar yaratilgan va zarur resurslar bazasi mavjud.

IV.O'tilgan mavzuni mustahkamlash: “3x4” texnologiyasi asosida.

Bu texnologiyada o'quvchilar 3-5 kishidan iborat 3 yoki 4 guruhga bo'linadilar. Guruhlar shakllantirilgandan so'ng o'qituvchi har bir guruhga yuqori qismida tushunchalar yozilgan qog'ozlarni tarqatadi.

Masalan:

I-variant:Bank -, moliya, budget, soliq va h.k.

Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan tushunchaga izoh beradi, izoh uchta so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'lishi lozim. Vazifa bajarilgach guruh a'zolari o'rinlaridan turib soat mili yo'nalishi bo'yicha joylarini o'zgartiradi (1-guruh 2-guruh o'rniga, 2-guruh 3-guruh o'rniga, 3-guruh 4-guruh o'rniga, boshqalari bo'lsa shu tartibda davom etadi). Yangi joyga kelgan guruh a'zolari shu erda qoldirilgan tarqatma material bilan tanishib, unga yangi uchtdan o'z fikrlarini qo'shadilar. Shu tariqa kichik guruhlar o'z joylariga qaytib kelgunlariga qadar joylarini almashtirib aylanadilar.

II-variant:Quyidagi savollar yoziladi.

- 1.Moliya tushunchasi bilan tanishmisiz? (Moliya keng ma'noda davlatning pul mablag'lari, pul mablag'larining aylanishi)
- 2.“Biror bir faoliyatni moliyalashtirish”- deganda nimani tushunasiz? (Biror bir faoliyatni moliyalashtirish deganda – ushbu faoliyatni tashkil qilish uchun lozim bo'lgan mablag'larning ajratilishi va sarflanishi tushuniladi).
- 3.Sizning fikringizcha huquqiy asossiz ham iqtisodiy faoliyat yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish mumkinmi? (hozirgi kunda huquq normalari mamlakatda shakllanayotgan iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlab qo'yadi)
- 4.O'zbekistonning pul birligi nima? (O'zbekistonning pul birligi “so'm” bo'lib, 1994 yildan muomalaga kiritilgan)

V.Baholash:

VI.Uyga vazifa:

O'tilgan mavzu oxirida berilgan savol va topshiriqlarga javob yozib kelish.

Fan: Konstitutsiyaviy huquq asoslari

Mavzu: Siyosiy partiyalar faoliyati.

Sinf: 9

Darsning maqsadi:

- demokratik huquqiy davlatda siyosiy partiyalar faoliyati ahamiyatini ko'rsatib berish; siyosiy partiyalar haqida ma'lumot berish;
- Fuqarolarni qonunlarni biluvchi va bajaruvchi etib tarbiyalashni davom ettirish
- Jamiytda siyosiy jarayonlarda ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirish

Dars turi: Yangi bilim va tushunchalarni shakllantirish.

Dars usuli: Aralash.

Dars materiallari va jihozlari:

1. 9-sinf "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" darsligi
2. Normativ material:
 - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
3. Doska, bo'r, qog'oz, flomasterlar.

Tarqatma material:

- o'rganilgan va darsda o'rganiladigan asosiy atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

Darsning asosiy tushuncha va atamalari:

- siyosat
- ko'p partiyali tizim;
- siyosiy partiya

Darsning bosqichlari va vaqt taqsimoti

1	Tashkiliy qism	daqiqa
2	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	daqiqa
5	O'quvchilarni baholash	daqiqa
6	Uyga vazifa berish	daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axboratini tinglash

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzuni mustahkamlashda sinf o'quvchilarini guruhlariga bo'linadi va quyidagi blits-savollarga javob beradilar

Blits-so'rab bilish o'tkazish uchun namunaviy savollar:

- Ommaviy axborot vositalarida senzura yo'l qo'yiladimi? (Yo'q)
- Jamoat tashkilotlari qaysi hujjatlarga muvofiq ish yuritadi? (O'z ustavlari asosida va mavjud qonun hujjatlari doirasida).

- Qanday partiyalarni tuzish taqiqlangan? (Konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlik bilan o`zgartirish o`z oldiga maqsad qilib qo`yuvchi, suverenitet, fuqarolar erkinliklariga qarshi chiquvchi, xalq salomatligi va ma`naviyatiga tajovuz qiluvchi partiyalarni tuzish taqiqlangan).
- Ommaviy axborot vositalarining maqsadi nima? (Aholiga axborot tarqatish va ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish).
- Ommaviy axborot vositalari ro`yxatdan o`tishi majburiymi? (Ha)
- Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi? (gazetalar, jurnallar, televideniya va radioeshittirish va hakazo).
- Jamoat birlashmalari shakllarini sanab bering. (Jamoat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar, ijtimoiy jamg'armalar, ijtimoiy muassasalar)
- Jamoat birlashmalari qaysi prinsiplar asosida tuziladi va faoliyat ko`rsatadi? (Ko`ngillilik, teng huquqlik, o`zini o`zi boshqarish, oshkoralik, qonuniylilik).

III.Yangi mavzu bayoni

1.Fuqarolarning davlatni boshqarishdagi ishtiroki haqida ma'lumot beriladi

2.O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi haqida ma'lumot beriladi

Xalq demokratik partiyasi 1991-yil 1-noyabr.....

Adolat partiyasi 1994-yil 18-fevral.....

Milliy tiklanish partiyasi 1995-yil 3-iyun.....

O'zbekiston liberal demokratik partiyasi 2003-yil 3-dekabr.....

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash: “ zig-zag” usuli orqali

mustahkamlaymiz. Sinfni 3 guruhda bo'lamiz va har bir guruh boshqa guruhda ismi aytilgan o'quvchiga savol beradi.

V.Baholash

VI.Uyga vazifa: Yangi mavzudagi o'zinggizni sinang ruknidagi savolar bilan tanishish. Yangi mavzi mavzusinig matini bilan tanishib kelish

“IQTISODIY BILIM ASOSLARI “ FANIDAN DARS ISHLANMALAR.

№1 Dars mavzusi: Cheklanganlik muammosi.

I.Darsning maqsadi:

- ehtiyoblarni farqlay olish;
- inson ehtiyojlarining chegarasi yo`qligiga tushunib yetish;
- resurslarning cheklanganligini asoslay olish;
- iqtisodiyotning asosiy muammosi mohiyatiga tushunib yetish;
- iqtisodiyot fanini o`rganishning mumkinligini anglash.

II.Darsda yoritilishi lozim bo`lgan asosiy tushuncha va atamalar:

- etiyoj;
- shaxsiy ehtiyojlar;
- ijtimoiy ehtiyojlar;
- moddiy ehtiyojlar;
- ma`naviy ehtiyojlar;
- iqtisodiy resurslar;
- erkin ne`matlar;
- iqtisodiy ne`matlar;
- cheklanganlik muammosi;
- insonning mehnat qilishga bo`lgan ehtiyoji.

III.Dars uchun jihozlar va ma`lumot manbalar:

- 8-sinf darsligi ;
- statistik ma`lumotlar.

IV.Darsning bosqichlari va vaqt bo`yicha taqsimoti:

1.	Tashkiliy qism	5 daqida
2.	Yangi mavzuini boshlashga hozirlik	8 daqida
3.	Yangi mavzuini yoratish: a)kichik guruhlarda ishlan; b)munozara.	20 daqida 15 daqida 8 daqida
4	Yangi mavzuini mustahkamlash.	6 daqida
5	Darsga yakun yasash va baholash.	4 daqida
6	Uyga vazifa.	2 daqida

V.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.

Salom-alik qilinadi. Davomat tekshiriladi.

2.Yangi mavzuini boshlashga hozirlik.

O`quvchilar diqqati yangi mavzuga qaratiladi va dars mazuni uchun quyidagi savol beriladi:

-Inson Yer yuzida yashab, to`laqonli hayot kechirishi uchun o`zida nimalarga yetishmovchi-lik (muhtojlik) sezadi ? 3 daqiqa ichida shu yetishmovchiliklarni (muhtojliklar-ni) yozma ravishda ro`yxatini tizing.

O`quvchilardan 3 nafari o`rtaga chiqariladi va ro`yxatlarini o`quv taxtasiga yozish so`raladi. O`quv taxtasiga yozilgan ro`yxatga ehtiyojlar deyiladi va unga ta`rif beriladi. Yozilgan ro`yxatdan insonning yolg`iz o`ziga tegishli ehtiyoji shaxsiy ehtiyoj ekanligi, yonma-yon yashayotgan insonlar hayoti uchun zarur ehtiyojlar umumiy ehtiyojlar ekanligi taqidlanadi. Qolgan xohlovchi o`quvchilar navbatma-navbat chiqib, ehtiyojlar ro`yxatini davom ettirishlari mumkinligi aytiladi. O`quv taxtasi to`lishi bilan jarayon to`xtatiladi va o`rtaga savol tashlanadi:

-Agar vaqtimiz yetarlicha bo`lganida ,bu ro`yxatni yana qanchagacha davom ettirishimiz mumkin edi?

O`quvchilar fikri tinglanadi va quyidagi namunaviy javoblar olinadi: Ko`p; Cheki yo`q; Istagancha yozishimiz mumkin.

Xulosa: INSON EHTIYOJLARINING CHEGARASI, CHEKI YO`Q!!!.

(Taxtaning yuqori qismiga katta xarflar bilan shu jumla yoziladi).

O`quvchilar to`rt guruxga ajratiladi va guruhlar bir-birlariga halaqit qilmaydigan xolatda joylashtiriladi. Xar bir guruhga darslikda keltirilgan 1-4 rasmlar bo`lib beriladi va bu rasmlarga tegishli, mos faollashtiruvchi savollarga javob topish so`raladi. Tayyorgarlik uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.

So`ng xar bir guruhning qo`yilgan muammo bo`yicha taqdimoti birgalikda eshitiladi.

Sinfxonada stol va stullar va partalarning an`anaviy joylashuvi. Sinfxonada stol va stullar yoki partalarning mayda guruxlarda ishlashga moslashtirilgan joylashuvi.

3.Yangi mavzuni yoritish.

Yangi mavzuni yoritish avval 1- va 2- guruxlarning taqdimotini tinglash bilan boshlanadi. Bir gurux o`z fikrini bayon qilib bo`lganidan so`ng, qolgan guruxlar to`ldirishlari, qo`shimcha qilishlari yoki e`tirozlarini bildirishlari mumkin. Guruxlardan quyidagicha namunaviy javoblar olish kutiladi:

1-gurux: - Bu rasmda tadbirkor tasvirlangan. Uning yengil avtomobilga, uyali telefon aloqasiga, firma tuzishga, firma ofisiga,

biznes dunyosida kechayotgan o'zgarishlar va ma'lumotlarga, iqtisodiy bilimlarga, ma'lum nufuzga, obro'ga ega bo'lish va hokazo ehtiyojlari bo'lishi mumkin.

2-gurux: - Bu fermer – sohibkor. Uning yuk avtomobiliga, bog'dagi meva daraxtlarini parvarish qilish bilan bog'liq turli xil texnika va mexanizmlarga, yer maydoni, suv, mineral o'g'it va boshqa xom ashyolarga, mehnat qurollariga, bevosita mehnat qilishga, dehqon-fermer xo'jaligini tuzishga, yollanma mehnat kuchlariga, ishchi-xodimlarga ehtiyoji bor.

Bu ikki gurux javoblari tinglanib bo'lingach, ularga umumiy quyidagi savol bilan murojaat qilinadi.

Bu kishilarning qanday umumiy va bir-biridan farqi ehtiyojlari bor?

Guruxlar javoblari tinglanadi.

Ular ehtiyojlarining farqi kasblarining, yoshlarining, didlarining, qiziqishlarining, dunyoqarashlarining turli xil ekanligida. Shuning uchun xam kimdir rasm chizishga ehtiyoj sezsa, kimdir musiqa chalishga ehtiyoj sezadi, fermer meva yetishtirish uchun kerakli bo'lgan narsalarga ehtiyoj sezsa, tadbirkor tadbirkorligini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan narsalarga ehtiyoj sezadi.

Agar o'quvchilar fikri ushbu javoblardan yiroqlashsa, ular fikri yuqoridagi javob asosida yo'naltirib boriladi. So'ng quyidagicha xulosa qilinadi:

Xulosa: Demak, yashashga, mehnat qilishga, dam olishga bo'lgan ehtiyojimiz umumiy bo'lsa, yoshimiz, didimiz, kasbimiz, dunyoqarashimiz, yashash tarzimiz, sharoitimizga qarab ehtiyojlarimiz turli xil bo'lar ekan.

Qolgan ikki guruh javoblari birin-ketin tinglanadi. Guruxlarning taxminiy javoblari:

3-gurux javobi: Qishloqda yashayotgan oila birgalikda foydalanish uchun uy-joyga, uy-ro'zg'or buyumlariga, tomorqa xo'jaligini yuritish uchun zarur jihozlarga va xokazo ehtiyojlari bor.

4-gurux javobi: Shahar axolisining transportdan birga foydalanish, elektr energiyasi ta'minoti, telefon, pochta xizmati, yong'in va boshqa ofatlardan saqlanish, jamoat tartibini saqlashga ehtiyojlari bor.

Bu javoblardan so'ng quyidagicha xulosa qilinadi:

Xulosa: Oila a'zolarining barchasi uchun zarur va barchasi uchun birdek ehtiyojlar oilaviy ehtiyojlar deyiladi.

Bitta mamlakatda, bitta shaharda, yonma-yon hamjixatlikda hayot kechirish, ularning birgalikda qoldiradigan umumiy extiyojlarini keltirib chiqaradi. Bunday extiyojlar ijtimoiy extiyojlar deyiladi.

Shu o`rinda quyidagi ma`lumotni berib o`tish tavsiya etiladi:
“Extiyojlar shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy kabi turlarga bo`linishi bilan birga, ularni qanday tovarlar yoki xizmatlardan tarkib topganiga qarab ham sinflarga ajratish mumkin”.

1.Moddiy extiyojlar: oziq-ovqatlar, kiyim – kechaklar, uy-joylar, yashash uchun zarur bo`lgan jihozlar va xokazo.

2.Ma`naviy extiyojlar: bilim olishga, kitob va gazeta o`qish, radio eshitish, odamlar bilan muloqotda bo`lish va xokazo.

Guruhlarining fikrlash va anglash uchun quyidagi savol o`rtaga tashlanadi:

-Odamlarga o`zlarining cheksiz extiyojlarini qondirish uchun nimalar kerak?

-Taxminiy javob: Oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, asbob-uskunalar, avtomobillar, kitoblar, umuman olganda to`laqonli yashash uchun zarur bo`lgan barcha narsalar kerak bo`ladi.

Javoblar tinglanib bo`lingach, resurslarga ta`rif beriladi.

Iqtisodiyotda extiyojlarni qondirish uchun zarur bo`lgan barcha narsalarga resurslar deyiladi.

Savol: Barcha extiyojlarimizni qondirish uchun resurslar yetarli mi?

Guruhlar javoblari eshitiladi va quyidagicha xulosa qilinadi:

Xulosa.TABIATDAGI JAMI RESURLAR CHEGARALANGAN.

Demak: Iqtisodiy resurslar miqdori chegaralanganligidan insonning xamma ehtiyojlarini to`la qondirishning imkoniyati yo`q. Iqtisodchilar bu muammoni cheklanganlik muammosi deyishadi.

Iqtisodiyotning fan sifatidagi eng asosiy vazifasi cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, cheksiz, chegarasi yo`q extiyojlarni imkon qadar ko`proq qondirish va oqilona xo`jalik yuritish yo`l-yo`riqlarini o`rgatishdir.

4.Mavzuni mustahkamlash.

Mehnat qilish inson uchun extiyoj hisoblanadimi?

Buyuk alloma Naqshbandning “Dil ba yor-u, dast ba kor” degan hikmatli so`zining ma`nosini qanday tushunasiz?

O`quvchilar o`z fikrlarini bildirishadi; Inson o`z moddiy va ma`naviy extiyojlarini qondirish uchun zarur ne`matlarni tabiatdan

tayyor holda hammasini olmaganligi uchun, o'z qo'llari bilan, aql-zakovatini ishga solib yaratishga majbur. Bu esa o'z navbatida mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Allomaning hikmatli so'zi: "Dilingga ma'naviy yuksaklikni joylab, qo'ling mehnatda, ishda moddiy ne'matlarni yaratishda bo'lsin", degan ma'noni anglatadi.

5.Darsga yakun yasash va baholash.

Darsga faol qatnashgan guruh va o'quvchilar aniqlanadi va baxolanadi. Baxolar jurnalga qo'yiladi.

6.Uyga vazifa.

1.Darsni mustahkamlash uchun berilgan 2-, 4-, 5-savollarga og'zaki javob topib kelish.

2.Gazeta va jurnallardan cheklanganlik muammosiga oid materiallar va rasmlarni topib kelish va muammoni izohlash. (Materiallardan keyingi darsda foydalanish mumkin).

№2 Dars mavzusi: Tanlov va uning miqobil qiymati.

I.Darsning maqsadi:

- tanlovning zarurat ekanligini anglab yetish;
- tanlovning muqobil qiymatini topa bilish;
- murosali tanlov malkasiga ega bo'lish.

II.Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy tushuncha va atamalar:

- tanlov;
- tanlovning muqobil qiymati;
- murosali tanlov.

III.Dars uchun zarur jihozlar va ma'lumot manbalari:

- 8-sinf darsligi.

IV.Darsning bosqichlari va vaqt taqsimoti:

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish va baholash	8 daqiqa
3	Yangi mavzuni boshlashga hozirlik	3 daqiqa
4	Yangi mavzuni yoritish: A) "Aqliy xujum"; B) ma'ruza.	15 daqiqa 10 daqiqa 5 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash: A) "Aqliy xujum"; B) ma'ruza.	15 daqiqa 5 daqiqa 10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

V.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.

O`quvchilar bilan salomlashib, davomat tekshiriladi, sinf jurnali to`ldiriladi.

2.Uy vazifasini tekshirish va baholash.

O`quvchilarning uyga berilgan vazifalarni qanday darajada bajarganligi tekshiriladi. Vazifa qilib berilgan savollarga og`zaki ravishda javob olinadi va to`ldiriladi.

-Inson nima uchun koinotni tadqiq etyapti?

Savol muhokama qilinadi va quyidagi xulosaga kelinadi:

Inson ehtiyojlarining chegarasi yo`qligi va resurslarning cheklanganligi sababli yana qo`shimcha resurslar topish maqsadida insoniyat kosmosda tadqiqot ishlari olib bormoqda.

O`quvchilarning javoblari va ishtiroklarining faolligiga qarab, o`quvchilar reyting tizimi asosida baholanadi.

3.Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

O`quvchilar diqqati darslikning yangi mavzusiga “Tanlov va uning muqobil qiymati”ga qaratiladi va mavzu maqsadi bilan tanishtiriladi. O`quvchilarning e`tiboriga mavzuning “Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar” bandida keltirilgan Shohjaxonning muqobil imkoniyatlari haqidagi yozma material muhokama qilinadi.

“Aytaylik, tengdoshimiz Shohjaxonning tug`ilgan kuniga dadasi o`ziga yoqqan biror narsa olish uchun 100000 so`m pul berdi. Uning uchta muqobil (alternativ)”, ya`ni quyidagi uchta imkoniyatdan faqat bittasini sotib olish imkoniyati bor:

- 1) krossovka;
- 2) futbol to`pi
- 3) portfel

Shahjaxon bu narsalarni sotib olishdan keladigan nafni xuddi shu tartibda xush ko`radi. Ravshanki, pul miqdori chegaralanganligi sababli bu holatda tengdoshingiz uch imkoniyatdan birini tanlashga majbur. U albatta krossovka sotib olishni tanlaydi.

Shahjaxonning bu tanlovi futbol to`pi olmasligi bilan “qimmatga tushadi”. Iqtisodchilar buni-tanlovning muqobil qiymati deb atashadi. Demak, Shohjaxon tanlovining, ya`ni krossovkaning muqobil qiymati-futbol to`pi bilan o`lchanadi.

4.Yangi mavzuni yoritish.

Yangi mavzuni yoritish o`quvchilarga quyidagi savollar berish bilan boshlanadi.

-Ayting-chi, Shoxjahon nima sababdan krossoka sotib olishni tanladi?

O`quvchilar fikri tinglanadi. Namunaviy javob: “Shoxjahon uchun eng katta naf keltiruvchi tanlovi krossoka sotib olish edi. Shu sababli u krossovka sotib olishni tanladi”.

-Shoxjaxonning uchinchi imkoniyati nima sababdan muqobil qiymatga kiritilmayapti?

O`quvchilarning turli xil fikrlari tinglanadi va quyidagi xulosaga kelinadi: Birinchidan, voz kechilgan imkoniyatlar ichidan eng naflisi futbol to`pi sotib olish edi. Ikkinchidan, 100000 so`mga ikki imkoniyatni sotib olishning iloji yo`q.

-Nega Shohjaxon tanlovining muqobil qiymati portfel bilan o`lchanmayapti?

Ushbu savolga o`quvchilar munosabatlari eshitiladi. Agar o`quvchilar fikri mantiqan to`g`ri javobdan chetlashsa, u holda o`quvchilarga quyidagi javob asosida hulosalash tavsiya etiladi:

“Shahjaxon tanlash jarayonida imkoniyatlarni nafliligiga qarab avval krossovka sotib olishni tanlagan. Agarda ba`zi sababga ko`ra krossovka sotib ololmasa, nafliligi jihatdan muqobil qilib futbol to`pi sotib olishni maqsad qilib olgan. Nafliligiga ko`ra portfel keyingi o`rinda tanlangan. Shu sababli Shohjaxon tanlovining muqobil qiymati portfel bilan o`lchanmayapti”.

Siz Shohjaxonning o`rnida bo`lganinggizda, bu uch imkoniyatdan qaysi birini tanlagan bo`lar edingiz? Nega? Tanlovingizning muqobil qiymatini aniqlang.

3-4 o`quvchi fikrlari eshitiladi va ulardan fikrlarini asoslab berishlari so`raladi.

O`quvchilardan tanlovining muqobil qiymati nimadan iborat ekanligi eshitiladi va uni nima sababdan muqobil qiymati qilib tanlanganlarini asoslab berish so`raladi.

Yuqoridagilar asosida quyidagicha umumiy xulosa chiqariladi:

Inson cheklanganlik muammosi tufayli imkoniyatlari ichidan birini (yoki bir nechtasini) tanlashga majbur. Tanlov natijasida imkoniyatlarning nafliligiga qarab oldin-keyin amalga oshirish rejalashtiriladi. Tanlov natijasida voz kechilgan eng katta nafga ega bo`lgan imkoniyat- tanlovning muqobil qiymati deb yuritiladi.

5.Dars mavzusini mustahkamlash.

Bu bandda murosali tanlov tushunchasi o`rgatiladi.

“Tanlov jarayonida baʼzan murosali tanlovni amalga oshirishga toʻgʻri keladi. Bu holda imkoniyatlarning biri tanlanib, ikkinchisidan vos kechilmaydi. Buni biz tijoratchi Abdullayev misolida koʻrib chiqishimiz mumkin. Abdullayevning 180 ming soʻm puli bor, u bu puliga konfet va pecheniy sotib olmoqchi. Konfetning narxi 450 soʻm, demak, 400 kg sotib olishi mumkin. Pecheniyni narxi 300 soʻm, jami 600 kg pecheniy sotib olishi mumkin. Lekin Abdullayev oʻz mijozlarini extiyojlarini qondirish uchun konfet xam, pecheniy xam xarid qilishi kerak boʻldi. Shu bois Abdullayev bor mablagʻning yarmi – 90ming soʻmga 200 kg konfet, qolgan yarmiga esa 300 kg pecheniy sotib olishga qaror qildi. Yaʼni, xar ikkala imkoniyati bilan xam murosaga borib, ulardan qisman-qisman boʻlsada foydalandi.

Bunday tanlov usuli iqtisodiyotda murosali (yoki aralash) tanlov deb yuritiladi”. Shu misol orqali oʻquvchilarga murosali tanlov atamasi tushuntiriladi. Soʻng quyidagi savollar oʻquvchilar diqqatiga havola qilinadi.

Abdullayevning 18 ming soʻm puliga yana qanday nisbatlarda konfet va pecheniy sotib olish mumkin edi?

Bunday imkoniyatlarning butun kilogrammlaridan 5-6 tasini aniqlab quyidagi jadvalni toʻldiring:

Pecheniy miqdori – u (kg)	450s	100	300	200
Konfet miqdori – x (kg)	300s	200	400	400

Oʻquvchilar bilan birgalikda maqjud variant nisbatlari aniqlanadi va jadval doskaning bir kismiga chizilib toʻldiriladi.

Pecheniy miqdori – u (kg)	450 s	500	450	300	150
Konfet miqdori – x (kg)	300 s	100	100	200	300

Oʻquv taxtasining bir qismiga koordinatalar tekisligi chiziladi va jadvaldagi nuqtalarni koordinatalar tekisligiga belgilab, tutashtirib chiqiladi. Soʻng koordinata oʻqlari va bu chiziq bilan oʻralgan soha ishlab chiqarish imkoniyatlari sohaga yoki tanlov imkoniyatlari sohasidan iborat boʻlishi tushuntiriladi.

Oʻquvchilar eʼtiboriga quyidagi savollar beriladi:

-Bu soha ichida yotgan V (150; 250) nuqtaga mos kelgan imkoniyatni tavsiflab bering. Bu xolatda pul resursidan samarali foydalanilyaptimi?

O`quvchilarning javoblari eshitiladi va quyidagicha xulosa qilinadi:

Bu xolatda pul resursi ortib qoladi, chunki konfet – $150 \times 450 = 67500$ so`m, pecheniy –  $250 \times 400 = 100000$  so`m bo`lib, umumiy pul resursidan 167500 so`m foydalanilyapti. 12500 so`mlik pul resursidan foydalanilmayapti. Bu esa pul resursidan foydalanilmayotganidan dalolat beradi.

- Bu soha tashqarisida yotgan $V(250; 350)$ nuqtaga mos kelgan imkoniyat haqida nima deya olasiz? Bu vaziyat Abdullayevning imkoniyat doirasidami? Nega?

Javob: Bu nuqta Abdullayevning imkoniyatlari sohasida emas, chunki konfet – $250 \times 450 = 112500$ so`m, pecheniy  $350 \times 400 = 140000$  so`m bo`lib, jami 252500 so`mlik xarajatni talab etadi. Abdullayevda esa 180000 so`m pul bor.

Pul resursidan samarali foydalanilgan imkoniyatlarga mos kelgan nuqtalarni aniqlang.

Javob: Pul resursidan samarali foydalanilgan imkoniyatlarga mos kelgan nuqtalar k/p kesma nuqtalaridan iborat bo`ladi.

$D(200; 300)$ nuqtaga mos kelgan murosali tanlovda 300 kg pecheniy sotib olishning muqobil qiymati nimadan iborat bo`ladi?

O`quvchilar muloxazalari tinglanadi va quyidagicha xulosa qilinadi:

Agar 200 kg konfet va 300 kg pecheniy sotib olishni tanlagan bo`lsa, u holda 300 kg pecheniyning muqobil qiymati 200 kg konfet sotib olish bo`ladi.

6.Uyga vazifa.

1.Dars mavzusini mustahkamlash bo`yicha 1-savolga yozma javob yozib kelish. 2-,3-,4-savollarga og`zaki javob topib kelish.

2.“Bu haqda o`ylab ko`ring!” bandidagi topshiriq.

№3.Dars mavzusi: Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.

I.Darsning maqsadi:

- mehnat taqsimotidan ko`zlangan asosiy maqsadni bilish;
- mehnat taqsimotining afzallik va kamchiliklarini sanash;
- mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning o`zaro aloqadorligini tushunish;
- turli xil ixtisoslashuvga misollar keltirish.

II.Darsda yoritilishi lozim bo`lgan asosiy tushuncha va atamalar:

- ixtisoslashuv;

-hududiy ixtisoslashuv.

III.Dars uchun zarur jihozlar va ma`lumot manbalari:

-8-sinf darsligi.

IV.Darsning bosqichlari va vaqt bo`yicha taqsimoti:

1.	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2.	Yangi mavzuni boshlashga hozirlik	5 daqiqa
3.	Yangi mavzuni yoritish: A) “Aqliy xujum”; B) baxs munozara; D) Xulosa.	23 daqiqa 5 daqiqa 15 daqiqa 3 daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash:	10 daqiqa
5.	Darsga yakun yasash va baholash	3 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

V.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.

O`quvchilar bilan salomlashib, davomat tekshiriladi, sinf jurnali to`ldiriladi.

2.Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

O`quvchilar 4 – guruhga bo`linadi va guruh a`zolari bir-birlari bilan yaqindan muloqotda bo`lishlari uchun davra qilib o`tkazish tavsiya etiladi. Guruhlarni joylashtirib bo`lingach, o`quvchilar diqqati yangi mavzu “Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv”ga qaratiladi va dars maqsadi bilan tanishtiriladi.

O`quvchilarning diqqati darslik sxemaga qaratiladi. Guruhlarda bittadan qo`shvaraq beriladi va unga sxemani chizish so`raladi.

3.Yangi mavzuni yoritish.

Yangi mavzuni yoritish guruxlarga quyidagi o`zak savolni berish bilan boshlash tavsiya etiladi:

- *Nima sabadan kishilar turli kasb egasi bo`ladilar?*

Guruhlardan turli fikrlar eshitiladi va “Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar” bandining 1-topshirig`i guruhlar diqqatiga havola qilinadi.

Sxemani muzqaymoq ishlab chiqarish uchun zarur resurslar, ularning kelib chiqishi, qaysi korxonada va mamlakatlarda tayyorlanishi chizma ko`rinishida qisman keltirilgan. muzqaymoq ishlab chiqarishda yana qanday resurslar jalb etiladi, ularning qaysi korxona

va mamlakatlardan keltirilishini aniqlab chizmani to'ldiring, lozim bo'lsa yana qo'shimcha kataklar chizing.

Ushbu topshiriqlarni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Bu vaqt davomida chizma sinf taxtasiga chizib qo'yiladi. Vaqt tugagach, guruh javoblari tinglanadi. Javoblarning aniqligiga qarab guruhlarga ball qo'yilib boriladi.

Har bir guruhdan javoblar tinglanadi va guruhlarning bildirgan to'g'ri javoblari taxtadagi chizma kataklariga qayd qilinadi.

Chizma to'ldirilgach, guruhlarga quyidagi savol beriladi:

-Nima sababdan muzqaymoq ishlab chiqarish uchun resurslar turli joylardan keltirilmayapti, undan ko'ra xamma resurslarni bir joyda ishlab chiqarib, ishni bir joyda tashkil etsa bo'lmaydimi?

Gurux fikrlarini tinglash bilan birga, ba'zi tovarlarni ishlab chiqarishda katta imkoniyatga ega bo'lgan korxonalar, korporatsiyalar va mamlakatlar bu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgani hamda hozirgi kunda o'z sohalarida ulkan yutuqlarga erishganliklari haqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilinadi. Shu sababli, tarmoq va sohalarga ixtisoslashuvning vujudga kelganligi va bu ishlab chiqarishda yuqori unumdorlikka olib kelishi tushuntiriladi.

Guruhlar mulohazasi uchun keyingi savol beriladi:

-Darslikdagi rasmda muzqaymoq ishlab chiqarish sexi tasvirlangan.

-Muzqaymoq ishlab chiqarishda nechta odam ishtirok etyapti?

Guruhlar sexda necha kishi ishlayotganini hisoblab topishadi. Ofisda 2 kishi, do'konda 1 ta sotuvchi, ishlab chiqarish bo'limida 3 kishi ishlayapti, 1 kishi tayyor mahsulotni omborga joylayapti, 1 kishi yuk mashinasiga ortayapti, sexda jami 8 kishi mehnat qilishyapti. Javob aniqlangandan so'ng quyidagi savol beriladi:

-Ular qanday kasb egalari bo'lishi mumkin? Ularning xar birining qanday vazifalari bor?

Ushbu savolga guruhlar munosabatlari tinglanadi, har bir kishining kasbi va vazifasi aniqlanadi, ya'ni ofisda menejer vazifasi telefonda samarali boshqarish, hisobsini kompyuterda bajaradi, korxona kirim-chiqimlarini kayd qilib boruvchi, sotuvchi vazifasi do'konda muzqaymoqni sotish, sexda ishlab chiqarish xodimlari: biri uskunalarni kuzatuvchi, ikkinchisi tayyor maxsulotni idishlarga quyuvchi, uchinchisi qadoqlovchi, yana biri tayyor maxsulotlarni o'rab omborga joylovchi, yana biri yuklovchi vazifasini bajaradi.

-Korxonada ishlab chiqarish jarayonini bunday tashkil qilinishidan ko'zlangan maqsad nima?

Savolga guruxlar birin-ketin o'z fikrlarini bildirishadi va bu savolga quyidagicha xulosa qilish tavsiya etiladi:

Xulosa. Ishlab chiqarishning taraqqiyoti natijasida bitta korxona miqyosida barcha maxsulotlarni ishlab chiqarishning iloji bo'lmay qoladi va korxonalar o'rtasida maxsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni o'zaro taqsimlanib olinadi.

Korxonalar o'rtasida mehnatning taqsimlanishi butun bir mahsulotni emas, uning bir qismini ishlab chiqarishga ixtisoslashishiga sabab bo'ladi.

Ixtisoslashgan korxonalarda esa har bir xodimga o'z vazifalari bo'lib beriladi va mehnat taqsimoti yuzaga keladi. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv natijasida mehnat unumdorligin oshirish yotadi. Mehnat unumdorligining oshishi esa korxona daromadlarini yanada oshiradi. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad ham daromadlarni oshirish hisoblanadi. So'ng darsning asosiy o'zak savoliga qaytiladi.

-Demak nima sababdan kishilar turli kasb egasi ekan?

Guruh javoblari tinglanadi va dars boshida to'g'riroq javob bergan guruh aniqlanib, turli xil usullar bilan rag'batlantirib qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

4.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Dars mavzusini mustahkamlash maqsadida:

-Mehnat taqsimoti qanday vujudga kelgan? – degan savol beriladi.

O'quvchilar yuqoridagi muloxaza asosida mehnat taqsimotining qanday vujudga kelganini aytishadi. Har bir narsaning afzallik va kamchilik tomonlari bo'lganidek, quyidagi savol o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi.

-Mehnat taqsimotining afzallik va kamchilik tomonlarini sanang?

O'quvchilar mehnat taqsimotining afzalliq va kamchilik tomonlari o'quv eshittiriladi.

5.Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

Guruhlarning ballari hisoblanadi, o'rinlar e'lon qilinadi va o'quvchilar baholanadi.

6.Uyga vazifa.

1. Bilimlarni sinab ko'rishga mo'ljallangan savollarga og'zaki javob topib kelish.
2. "Bu xaqda o'ylab ko'ring!" bandidagi vazifani yozma bajarish.
3. "Topshiriq"

№4 Dars mavzusi: Iqtisodiy tizimlar.

I.Darsning maqsadi:

-har qanday jamiyat oldida turgan asosiy savollarning mohiyatiga tushunib yetish;

-iqtisodiy tizimlarni bir-biridan farqlay va taqqoslay olish;

-har bir tizimning ijobiy va salbiy tomonlarini ajrata olish;

II.Darsda yoritilishi lozim bo`lgan asosiy tushuncha va atamalar:

-iqtisodiy tizim;

-markazlashgan rejali iqtisodiyot.

-an`anaviy iqtisodiyot;

-aralash iqtisodiyot;

-bozor iqtisodiyoti

III.Dars uchun zarur jihozlar va ma`lumot manbalari:

-8-sinf darsligi.

-4 dona topshiriqlar yozilgan varaqalar;

-rangli qalam, chizg`ich

IV.Darsning bosqichlari va vaqt bo`yicha taqsimoti:

1.	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2.	Yangi mavzuni boshlashga hozirlik	3 daqiqa
3.	Yangi mavzuni yoritish: A) “guruxlarda ishlash”; B) tahlil qilish; D) Xulosa.	29 daqiqa 15 daqiqa 12 daqiqa 2 daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash: A) savol-javob; B) munozara	6 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa
5.	Darsga yakun yasash va baholash	3 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

VI.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.

O`quvchilar bilan salomlashib, davomat tekshiriladi, sinf jurnali to`ldiriladi.

2. Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

Dars mavzusi aytiladi, o`quvchilar 4 guruhga ajratiladi va joylashtiriladi. Oldindan tayyorlab kelingan, topshiriqlar yozilgan varaqalar har bir guruhga bittadan tarqatiladi.

1-varaqa mazmuni.

Darslikda an`anaviy iqtisodiyot haqida keltirilgan ma`lumotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

An`anaviy iqtisodiyot tizimiga ta`rif bering. Bu tizimning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlang va tahlil qiling.

“Nima?”, “Qanday?”, “Kim uchun?” degan savollarga bu iqtisodiy tizim qanday javob beradi?

2-varaqa mazmuni.

Bozor iqtisodiyoti haqida darslikda keltirilgan ma`lumotlar bilan tanishib chiqib, quyidagi savollarga javob toping:

Bozor iqtisodiyotini ta`riflang. Uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlang va tahlil qiling.

“Nima?”, “Qanday?”, “Kim uchun?” degan savollarga bu iqtisodiy tizim qanday javob beradi?

3-varaqa mazmuni.

Markazlashgan rejali iqtisodiyot haqida darslikdagi materiallar asosida quyidagi savollarga javob bering:

Markazlashgan rejali iqtisodiyotga ta`rif bering. Uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlang va taxlil qiling.

“Nima?”, “Qanday?”, “Kim uchun?” degan savollarga bu iqtisodiy tizim qanday javob beradi?

4-varaqa mazmuni.

Darslikda berilgan aralash iqtisodiyot haqidagi materiallar asosida quyidagi savollarga javob bering: *“Nima?”, “Qanday?”, “Kim uchun?” degan savollarga bu iqtisodiy tizim qanday javob beradi?*

Aralash iqtisodiyotni ta`riflang. Bu tizimning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlang va tahlil qiling.

Tayyorgarlik uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

3.Yangi mavzuni yoritish.

Guruhlarda tayyorgarlik uchun berilgan vaqt tugagandan keyin, har bir guruh navbatma – navbat o`z javoblarini e`lon qiladi. Xar bir guruhga 4 daqiqadan vaqt ajratiladi.

Javoblar o`zaro muhokama qilinadi va xulosa chiqariladi.

Xulosa:

1. An`anaviy iqtisodiyot. An`anaviy iqtisodiyot tizimi *“Nima?”, “Qanday?”, “Kim uchun?”* degan savollarga jamiyatda saqlanib kelayotgan yuzlab yillik an`analarga muvofiq javob beradi. Mahsulot ota-bobolardan meros bo`lib kelayotgan usullar yordamida ishlab chiqariladi, eski urf-odatlariga ko`ra taqsimlanadi. Bunday iqtisodiyot turi juda qadimgi bo`lib, natural xo`jalik paydo bo`lishi bilan

boshlangan. Hozirda esa qoloq, butun dunyodan ajralib yashayotgan, tashqi dunyo bilan aloqa qilish va borish qiyin bo'lgan Tundra, Afrika va Amazonka chakalakzorlari, Sibir taygalari, okeanlardagi kichik orolchalarda va baland tog'larda istiqomat qilayotgan jamoa va qabilalarda uchratish mumkin.

2. Bozor iqtisodiyoti. Ishlab chiqarish vositalari xususiy korxonalar va shaxslar qo'lida bo'ladi. Iqtisodiyot yechimlar bozor qonunlariga asoslangan holda hal qilinadi. Nima, qancha ishlab chiqarish kerak? Bu savolga javob bozordagi talab va taklifga qarab beriladi.

Ijobiy tomoni:

-“Nima?”, “Qanday?”, “Qancha?” degan savollarga iste'molchi talabi javob beradi;

-raqobat kuchli bo'lishi sababli tovarlarni sifati yaxshilanadi, narxi arzonlashadi;

-tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun hammaga imkoniyat beriladi.

Salbiy tomoni:

-ishlab chiqarish katta firmalar qo'liga o'tib ketib, raqobat susayishi, monopoliya vujudga kelishi mumkin;

-jamiyat uchun zarur, lekin kam foyda keltiradigan ba'zi tovar va xizmatlar ishlab chiqarilmasligi mumkin;

-ishsizlikning paydo bo'lishi;

-axoli o'rtasida tafovut paydo bo'lishi (boy va qashshoqlarga arjarili) mumkin.

3. Rejali iqtisodiyot. Ishlab chiqarish vositalari deyarli davlatning ixtiyorida bo'ladi. Iqtisodiy yechimlar, hukumat tomonidan markazlashgan holatda yechiladi. Ishlab chiqarish reja asosida, taqsimot hukumat tomonidan yo'lga qo'yiladi.

4. Aralash iqtisodiyot. Bu iqtisodiy tizimda, ishlab chiqarish resurslarining bir qismi davlat tasarrufida, qolganlari esa xususiy korxonalar va shaxslar qo'lida bo'ladi. Ba'zi turdagi tovar va maxsulotlar davlat tomonidan ishlab chiqariladi. Shuningdek, aralash iqtisodiyotda davlat iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi kuch sifatida qatnashadi va shu bilan bir qatorda ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligi ham ta'minlanadi. Shu bois aralash iqtisodiyotni, bozor iqtisodiyoti va markazlashgan rejali iqtisodiyotning birikmasidan iborat deb atash mumkin. Hozirda dunyoning ko'plab davlatlarida aralash iqtisodiyot tizimi hukm surmoqda.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikdagi bilimni sinash uchun berilgan savol va topshiriqlarning bir nechtasi muhokama qilinadi.

5.Darsga yakun yasash va o`quvchilarni baholash.

Faol o`quvchilar baholanadi va darsga qisqacha yakun yasaladi.

6.Uyga vazifa.

1.“Bilimingizni sinab ko`ring!” bandidagi, darsda muhokama qilinmagan savol va topshiriqlar.

2.“Mashq”.

№ 5 Dars mavzusi: Bozor.

I.Darsning maqsadi:

- bozorni keng ma`noda tushunish;
- bozorning vazifalarini sanab kursating;
- bozorning iktisodiyotdagi urnini anglab yetish.

II.Darsda yoritilishi lozim bo`lgan asosiy tushuncha va atamalar:

- oldi – sotdi jarayoni;
- bozor;
- sotuvchi;
- xaridor.

III.Dars uchun jihozlar va ma`lumot manbalar:

- 8-sinf darsligi ;

IV.Darsning bosqichlari va taqsimoti:

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Uy vazifalarini tekshirish	6 daqiqa
3	Yangi mavzuni boshlashga hozirlik	3 daqiqa
4	Yangi mavzuni yoritish: a) munozara; b)test; v) mustakil ish	20 daqiqa 11 daqiqa 5 daqiqa 4 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash.	8 daqiqa
6	Darsga yakun yasash va baholash.	3 daqiqa
7	Uyga vazifa.	3 daqiqa

V.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.

Salom-alik qilinadi. Davomat tekshiriladi.

2.Uy vazifasini tekshirish va baholash.

O'tgan darsda uyga berilgan vazifalarni o'quvchilar qay darajada bajarganliklari aylanib tekshirilib chiqiladi va 3-4 o'quvchilardan uyga berilgan vazifa so'raladi.

O'quvchilar bilimi reyting tizimida ko'rsatilgan baholash tartibiga ko'ra baholanadi.

3. Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

O'quvchilardan yaqin orada bozordan yoki do'kondan biror narsani harid qilishni qanday amalga oshirganliklari haqida so'raladi. 1-2 o'quvchidan qayerda, nimani, qanday sotib olganlari tinglanadi. Pulni tovarga, tovarni pulga ayirboshlash oldi-sotdi jarayonini tashkil qiladi va oldi-sotdi jarayoni bozorlarda amalga oshiriladi, - degan xulosaga kelinadi. So'ng «sizlar bilan darsda xudi shu «bozor» mavzusini ko'rib chiqamiz», - deb taqidlanadi va o'quvchilar diqqati yangi mavzuga qaratiladi.

4. Yangi mavzuni yoritish.

Yangi mavzu davra suhbat, munozara usulida yoritiladi. O'quvchilar e'tibori darslikka qaratiladi va quyidagi savol bilan murojaat qilinadi:

- *1– rasmda tasvirlangan dexkon bozoridagi odamlarni kanday ikki toifalarga ajratish mumkin?*

Taxminiy javob: Bozordagi odamlarni ikki toifaga: sotuvchilar va xaridorlarga ajratishimiz mumkin.

- *Bozorda kimlar sotuvchi sifatida katnashishyapti? Ularning maksadi nimadan iborat?*

Taxminiy javob: Bozorda dehqon va tadbirkor sotuvchi sifatida qatnashyapti. Ularning maqsadi o'z mahsulotlarini pulga almashtirish.

- *Bozorda kimlar xaridor sifatida katnashyapti? Ularning maksadi nimadan iborat?*

Taxminiy javob: Bozorga xaridor sifatida asosan aholii qatnashadi. Ularning maksadi pullariga o'ziga kerakli bulgan mahsulotlarni sotib olish.

Bozorda asosan ikki toifadagi odamlar sotuvchi va xaridorlar ishtirok etar ekan. Sotuvchi tovarini pulga sotadi, xaridor tovarni puliga sotib oladi. Demak, bozor sotuvchi bilan xaridor uchrashadigan va tovarni pulga, pulni esa tovarga ayirboshlaydigan joy.

- *Ushbu rasmlarda nimalar sodir bo'layapti, ularning umumiy jixati nimadan iborat?*

Tayyorgarlik uchun 2 dakika vaqt beriladi. O'quvchilarga javoblarni partadosh o'rtog'i bilan birga muhokama qilish talab etiladi.

Ajratilgan vakt tugagandan sung, ukuvchilar fikri tinglanadi.

Taxminiy javob: 1-,2-, 4-rasmlarda, dexkon bozori, avtosalon, supermarket tasvirlangan. Ularning hammasida tovarlar sotilmoqda. Sotuvchilar ham, haridorlar ham bor. Sotuvchi bilan haridor uchrashmokda. 3- rasmda biroz boshqacharak holat tasvirlangan.

Sartarosh – xizmat ko`rsatuvchi, mijoz – xizmat sotib oluvchi sifatida namoyon bo`lmoqda. Bu yerda xizmat pulga aylanmoqda, pul xizmatga ayirboshlanmokda. Sartaroshxonani ham bozor desak bo`ladi. 5-rasmda fond birjasida oldi-sotdi jarayoni bo`lmoqda, demak bu yerda ham sotuvchi bilan haridor uchrashmokda.

Xulosa.

Yuqoridagi hamma rasmlarda tasvirlangan ko`rinishlar bozorlarga misol bo`la oladi. Bozorda tovargina emas, xizmatlar ham sotiladi. Yuqoridagi rasmda bozorning ishlab chiqarish bilan iste`molni bir-biriga bog`lashi, ular orasida vositachilik vazifasini bajarayotgani ham tasvirlangan.

Bozorda oldi-sotdi jarayoni orqali tovarning sotuvchilarni ham, haridorni ham qanoatlantiradigan, ma`lum bir narxi belgilanadi.

O`qituvchi, bozor iqtisodiyotini, ishlab chikarishni tartibga solib turishi, turli davlatlar o`rtasida iqtisodiy hamkorlik o`rnatishi tug`risida umumiy tushuncha beriladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, bozor bajaradigan vazifalar ro`yxatini tuzish topshiriladi va 2 daqiqa vaqt beriladi.

Berilgan vakt tugagandan so`ng, bozorning vazifalarini o`quvchilar aytishadi, o`qituvchi sinf taxtasiga yozadi.

Yuqoridagi javoblarga asosan umumiy xulosa qilinadi.

Bozorning vazifalari quyidagicha:

1-vazifasi –ishlab chikarish va iste`molni bir-biriga bog`lashdan, ular orasidagi vositachilik qilishdan iborat;

2-vazifasi – oldi-sotdi jarayoni orqali tovarning sotuvchini ham, haridorni ham qanoatlantiruvchi haqiqiy bahosi – narxini belgilashdan iborat;

3- vazifasi – iqtisodiyotni, ishlab chikarishni tartibga solib turishdan iborat;

4- vazifasi – turli davlatlar o`rtasida iqtisodiy hamkorlik o`rnatishdan iborat.

5. Dars mavzusini mustaxkamlash va darsga yakun yasash.

Dars mavzusini mustahkamlash uchun quyidagi vaziyat o`qib beriladi.

O'zbekistonning «Sher» firmasi Buyuk Britaniyaning «Cotton trade» firmasi bilan 1000 tonna paxtani sotish buyicha internet tarmogi orqali shartnoma tuzdi. «Sher» firmasi hisobiga Buyuk Britaniyaning «Cotton trade» firmasidan pul kelib tushgach, paxta junatildi.

Savol qo'yiladi:

- *Bu vaziyatda xaridor va sotuvchilar orasida oldi-sotdi jarayonini amalga oshirish uchun ular uchrashadigan muayyan joyni ko'rsatib bera olasizmi?*

Taxlil qilishga 5 daqiqa vaqt ajratiladi, o'quvchilar o'z fikrini, navbatma-navbat bayon qilishadi.

Xulosa: Bozor – sotuvchi va xaridorlar oldi-sotdi jarayonini amalga oshirish uchun uchrashadigan makondir. Bu uchrashuv uchun har doim ham alohida joyning bo'lishi shart emas. Oldi-sotdi jarayoni telefon, telefaks va internet tarmog'i orkali xam amalga oshirish mumkin.

Faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi va jurnalga qayd etiladi.

6. Uyga vazifa.

1. «Bilimingizni sinab ko'ring!» (og'zaki).
2. «Topshirik» asosida vazifa yuklanadi.

№ 6 Dars mavzusi: Bozor turlari

I.Darsning maqsadi:

- bozorning turlarini farqlay olish;
- xar bir bozor turiga misollar keltira olish;
- turli bozorlar o'rtasidagi aloqadorlikni bilish.

II.Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy tushuncha va atamalar:

- iste'mol tovarlari bozori;
- ishlab chikarish vositalari bozori;
- moliya bozori;
- mehnat bozori;
- intellektual tovarlar bozori;
- qimmatbaho kog'oz;
- tovar, fond, mehnat birjalari.

III.Dars uchun jihozlar va ma'lumot manbalar:

- 8-sinf darsligi ;
- tarkatma materiallar: tayyorlangan 5 dona varaq

IV.Darsning bosqichlari va vaqt bo'yicha taqsimoti:

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Yangi mavzuii boshlashga hozirlik	11 daqiqa 6 daqiqa

	a) uy vazifasini tekshirish; b) yangi mavzuni boshlashga hozirlik	5 daqiqa
3	Yangi mavzuni yoritish: a) guruxlarda ishlash; b) takdimot va taxlil kilish;	20 daqiqa 5 daqiqa 15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash.	7 daqiqa
5	Darsga yakun yasash va baholash.	3 daqiqa
6	Uyga vazifa.	2 daqiqa

V.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.


Salom-alik qilinadi. Davomat tekshiriladi.

2. Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

O'tgan darsda berilgan uyga vazifa savollariga javob tinglanadi. 3 daqiqa davomida o'quvchilarning tayyorgarligi va bilim darajasi aniklanadi.

3.Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

Darsni utishda klaster usulidan foydalaniladi. Ya'ni 5 dona tarkatma material tayyorlanadi. Tarkatilgan materiallardagi bozorlarda kanday tovarlar sotiladi? Ularning umumiy xususiyatlarini aniklang. Darslikdagi rasmga asoslanib ruyxat tuzing. Kanday birjalar shu bozorlarda mavjud.



bu chizmalarni doskalarga chizing va o'quvchilar guruhlariga vazifa qilib topshiring.

Guruhlarga ishlash uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ajratilgan vaqt tugagandan so'ng, guruhlar 3 daqiqa davomida savollariga navbatma-navbat javob berishadi.

Javoblar bo'yicha taxminan quyidagicha xulosa qilinadi:

1. Iste'mol tovarlari bozorida quyidagilar sotiladi: oziq-ovqat maxsulotlari, non, meva, sabzavot, yengil avtomobil, kitoblar, maktab, kompyuter, videokasseta, velosiped, soat, oshxona xizmati, kasalxona xizmati.

Umumiy xususiyatlari: aholi ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallanganligi.

2. Ishlab chikarish bozorida quyidagilar sotiladi: yuk avtomobili, avtobus, zavod, kombayn va boshqalar.

Umumiy xususiyatlari: korxonalarda ishlab chikarishni tashkil qilish uchun zarur bulgan asbob-uskunalar, bino-inshoatlar.

3. Mehnat bozorida quyidagilar sotiladi: sartarosh, duradgor, rassom va musikachi xizmati.

Umumiy xususiyatlari: ishchi kuchi, mehnati sarflanadi.

Mehnat birjasi: yollanma ishchi kuchi zarur korxona, tashkilotlar bilan ishsiz, ish qidirib yurgan kishilar o'rtasida vositachilik bilan shug'ullanadi.

4. Moliya bozorida quyidagilar sotiladi: bank xizmati, aksiya, chet el valyutasi va hokazo.

Umumiy xususiyatlari: moliyaviy mablag'lar qarzga beriladi yoki qarzga olinadi.

Fond birjasi: pullar, qimmatbaho kog'ozlar, horijiy davlat valyutalari oldi-sotdisini tashkil qilish bilan shug'ullanuvchi, vositachi muassasalar.

5. Intellektual bozorida quyidagilar sotiladi: kino asari, ixtiro, kitob, rassom ishi va xokazolar.

Umumiy xususiyatlari: aqliy mehnat mahsuli bo'lishligi, ular o'rtasida iqtisodiy hamkorlik o'rnatishdan iborat.

4. Dars mavzusini mustahkamlash.

Guruhlardan yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda, bozor turlarini muhimlik darajasiga qarab tartiblab yozish so'raladi. 2 daqiqa tayyorgarlik uchun vaqt beriladi.

O'qituvchi shu vaqt ichida sinf taxtasiga quyidagi ko'rinishda jadval tuzib qo'ysa maqsadga muvofiq bo'ladi:

№	Bozor turlari	1-gurux	2-gurux	3-gurux	4-gurux	5-gurux
1.	Iste'mol tovarlar bozori					

2.	Ishlab chiqarish vositalari bozori					
3.	Mehnat bozori					
4.	Moliya bozori					
5.	Intellectual tovarlar bozori					

Guruxlar javobini tayyorlab jadvalni to'ldirishadi.

Har bir guruhdan vakil chiqib o'z javoblarini izohlaydi.

Xulosa:

Hamma bozor turlari ham o'zicha muhim hisoblanadi. Ularning birortasi faoliyat ko'rsatmasa, boshqa bozorlar faoliyatiga ham ta'sir qiladi.

5. Darsni yakunlash va baxolash.

Darsga o'qituvchi yakun yasaydi. Faol guruh va o'quvchilarning nomlari aytiladi. O'quvchilar baholanadi.

6. Uyga vazifa.

1. «Bilimingizni sinab ko'ring!» savollarga (og'zaki) javob berish.

2. Alohida olingan tovarlar va xizmatlar bozorini darslikdan o'qib o'rganib kelish.

3. «Buni yodda tuting» bandidagi jummalarni yod olish.

№ 7 Dars mavzusi: Bozor qatnashchilari.

I. Darsning maqsadi:

-bozor katnashchilarini ajrata olish va ular orasidagi o'zaro munosabatlarni bilish;

-bozordagi pul, tovar oqimi qanday qilib davriy aylanib turishini sharhlay olish;

-bozor infratuzilmalarini sanab kursatish.

II. Darsda yoritilishi lozim bo'lgan asosiy tushuncha va atamalar:

-ishlab chikaruvchilar;

-iste'molchilar;

-bozor katnashchilari;

-bozor infratuzilmalari.

III. Dars uchun jihozlar va ma'lumot manbalari:

-8-sinf darsligi ;

- darsga tegishli tayyorlangan 3 dona varaqalar;

-dars mavzusi asosida tayyorlangan plakat.

IV. Darsning bosqichlari va vaqt bo'yicha taqsimoti:

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
---	----------------	----------

2	Uy vazifalarini tekshirish	5 daqiqa
3	Yangi mavzuni boshlashga hozirlik	3 daqiqa
4	Yangi mavzuni yoritish: a) guruhlarda ishlash; b)munozara; v)tahlil.	23 daqiqa 10 daqiqa 5 daqiqa 8 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash.	7 daqiqa
6	Darsga yakun yasash va baholash.	3 daqiqa
7	Uyga vazifa.	2 daqiqa

V.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.

Ukuvchilar bilan salomlashiladi. Davomat tekshiriladi.

2. Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

Quyidagi savol o`rtaga tashlanadi.

- *Yashab turgan xududingizda qaysi bozor turlari bor? Bu bozorlarda kimlar qatnashadi?*

Taxminiy javob: axolii, korxonalar, jamoa xo`jaligi, fond birjalari, mehnat birjalari va boshqalar.

Xulosa. Bozor qatnashchilari 3 guruhga ajratiladi:

1. Davlat (davlat korxonalari).
2. Ishlab chikaruvchilar (korxona va firmalar).
3. Uy xo`jaliklari (iste`molchilar).

O`quvchilar 3 guruhga ajratiladi va joylashtiriladi.

Guruxlarga oldindan tayyorlangan 3 dona varaka tarkatiladi va 10 daqiqa davomida yozma ravishda javob tayyorlash so`raladi.

1-gurux. Davlat tashkiloti (Davlat korxonalari nomidan).

- *Bozordan nimalar sotib olasiz va nimalar sotasiz?*

-*Bu tovarni nimani evaziga qaysi bozordan sotib olasiz va qaysi bozorda sotasiz?*

2-gurux. Ishlab chikaruvchi (Korxona va firmalar nomidan).

- *Bozordan nimalar sotib olasiz va nimalar sotasiz?*

-*Bu tovarlarni nimani evaziga kaysi bozordan sotib olasiz va kaysi bozorda sotasiz?*

3-gurux. Fukaro (Iste`molchi axolii nomidan).

-*Bozordan nimalar sotib olasiz va nimalar sotasiz?*

-*Bu tovarlarni nimani evaziga kaysi bozordan sotib olasiz va qaysi bozorda sotasiz?*

Guruhlar berilgan topshiriqlarni bajarishayotgan vaqtda o`qituvchi sinf taxtasini 3 qismga bo`lib, quyidagi ko`rinishdagi jadvalni chizib, tayyorlab qo`yiladi.

Ishlab chikaruvchilar		Oila – uy xujaliklari		Davlat	
sotib oladi	sotadi	sotib oladi	sotadi	sotib oladi	sotadi

3. Yangi mavzuni yoritish.

Ajratilgan vaqt tugaganidan so`ng, har bir guruhdan bitta vakil chiqib, javoblarni taxtaga yozadi. Xar bir tovar va xizmatlar nima evaziga qaysi bozordan sotib olinishi va qaysi bozorda sotilishini sharhlaydi.

Xulosa.

1. Davlat va xukumat, jamiyatning boshkaruv organi, tabiiy resurslar egasi sifatida aloxida o`rin tutadi:

- Bozordan davlat korxonalari uchun zarur buyum, tovar, xizmatlar va ishchi kuchi sotib oladi.

- Bozorda tabiiy resurslarni davlat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni, davlat idoralari va mahkamalarini xizmatlari, davlat mulkini sotadi.

2. Ishlab chikaruvchilar:

- Tabiiy resurslar, ishlab chikarish vositalari, ishchi kuchini bozordan sotib oladi.

- Ishlab chikarilgan tovarlari va xizmatlari. O`ziga tegishli mulkni bozorda sotadi.

3. Oila – uy xo`jaligi:

- Oziq-ovkat, kiyim-kechak, ishlab chikarish kurollari, xizmatlarni bozordan sotib oladi.

- O`zlari tomorqasida yetishtirgan turli xil mahsulotlar, ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni, ishchi kuchini bozorda sotadi.

4. Dars mavzusini mustahkamlash.

Har bir guruhdan bittadan o`quvchi chiqib, o`z guruhi bilan birgalikda o`ziga tegishli bo`lgan bozor qatnashchisi ko`rsatilgan joyga chizma asosida, undagi ko`rsatkichlarga kerakli tovar-xizmatlarni yozishi so`raladi. Ko`rsatkichlar dars davomida berilgan javoblarga asoslangan holda to`ldiriladi.

Bozor ishtirokchilari orasidagi tovar, xizmat va pul oqimining aylanishi. Darslikning 51-betidagi rasmni diqqat bilan kuzatishni so`rang. Undagi bozor qatnashchilarining o`rniga e`tiborlarini qarating.

Bozorning har uchala qatnashchisi – davlat, ishlab chiqaruvchilar va oila-uy xo`jaliklari o`rtasidagi oldi-sotdi jarayoni sodir bo`lishi. Bozorni davriy ravishda doimo harakatga keltirib turadi.

Bozor vazifalarini amalga oshirishda bevosita qatnashmasdan, unga yordam beruvchi xizmat ko`rsatuvchi korxona, tashkilot va muassasalari bozor infratuzilmalari deyiladi.

5. Darsni mavzusini yakunlash va baxolash.

Darsga qisqacha yakun yasaladi va faol o`quvchilar baholanadi.

6. Uyga vazifa.

1. Bilimlarni sinab ko`rish uchun berilgan 3-5-savollar.
2. Darslikdan bozor infratuzilmalarini mustaqil o`rganib kelish.
3. «Topshirik».

№8 Dars mavzusi: Mulk va xususiylashtirish.

I.Darsning maqsadi:

- mulk va uning turlarini bilish;
- xususiy mulkning mohiyati va bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini anglab yetish;
- har xil mulk turlarining afzallik va kamchilik tomonlarini taqqoslash;
- respublikamizda xususiylashtirish jarayonini tavsiflab berish.

II.Darsda yoritilishi lozim bo`lgan asosiy tushuncha va atamalar:

- mulk;
- mulkdor;
- davlat mulki;
- xususiy mulk;
- xususiylashtirish.

III.Dars uchun jihozlar va ma`lumot manbalari:

- 8-sinf darsligi ;
- dars asosida tayyorlangan 6 dona varaka;
- dars asosida tayyorlangan jadval.

IV.Darsning bosqichlari va vaqt bo`yicha taqsimoti:

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Yangi mavzuini boshlashga hozirlik	5 daqiqa
3	Yangi mavzuini yoritish: a) guruhlarda ishlash;	28 daqiqa 3 daqiqa

	b)mavzuni yoritish; v)taxlil qilish; g) munozara.	15 daqiqa 5 daqiqa 5 daqiqa
5	Yangi mavzuini mustahkamlash.	5daqiqa
6	Darsga yakun yasash va baholash.	3 daqiqa
7	Uyga vazifa.	2 daqiqa

V.Darsning tafsilotlari:

1.Tashkiliy qism.

O`quvchilar bilan salomlashiladi. Davomat tekshiriladi.

2. Yangi mavzuni boshlashga hozirlik.

Yangi mavzuni yoritishga hozirlik quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- o`quvchilarga o`tgan darsda uyga berilgan vazifalar 3 daqiqa davomida tekshiriladi va yangi dars mavzusi bilan tanishtiriladi;
- o`quvchilar 6 guruhga bo`linadi va joylashtiriladi;
- guruhlarga oldindan tayyorlab kelingan varaqalar tarkatiladi;
- guruhlarga ishlash uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.

1-varaka.

1. Rasmda qanday mulk tasvirlangan? Uning egasi kim?
2. Mulkning kimga tegishligini kanday anikladingiz?

2-varaqa.

- 1.Bu qanday mulk va kimga tegishli?
2. Boshqa mulklardan nimasi bilan farqlanadi?

3-varaqa.

- 1.Rasmda qanday mulklar tasvirlangan va ularning egalari kimlar bo`lishi mumkin?
2. Mulkning kimga tegishliligi nimasiga qarab aniklanadi?

4-varaqa.

1. Rasmda qanday mulklar tasvirlangan va uning egalari kimlar bo`lishi mumkin?
2. Mulkning kimga tegishliligi nimasiga qarab aniqlanadi?

5-varaqa.

1. Rasmlarda tasvirlangan mulk egalari kimlar bo`lishi mumkin?
2. Bu mulklar nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?

6-varaqa.

Birinchisi jamoa korxonasiga tegishli, ikkinchisi xususiy mikroavtobusda yo`nalishli taksi xizmati ko`rsatayotgan haydovchilarning mehnat shart-sharoitlari asosida qanday farq bor?

3. Yangi mavzuni yoritish.

Tayyorgarlik uchun berilgan vaqt tugaganidan so`ng, guruhlar navbatma-navbat, 3 daqiqa davomida javoblarini taqdimot qilishadi.

Xulosa.

Mulkning ikki shakli: davlat va xususiy mulk shakllari mavjud.

1. Davlat mulki: yer,er osti va usti boyliklari, suv havzalari, o`simlik va xayvonot dunyosi, davlat korxonalari va muassasalariga tegishli bo`lgan mol-mulk, oltin zahirasi, davlat axamiyatiga ega bulgan tarixiy yodgorliklar va boyliklar. Boshka mol-mulklar.

2. Xususiy mulk:

a) xususiy mulk egasi yakka, alohida shaxs bo`lsa, mulkdan foydalanish, egalik qilish va tasarruf qilish huquqlari shu birgina shaxs qo`lida bo`ladi. Bunday xususiy mulk – mulkdori yakka shaxs bo`lgan xususiy mulk deb ataladi;

b) xususiy mulk egasi bir necha shaxs bo`lganda, bunday hususiy mulk jamoa mulki ham deyiladi. Mulkdan foydalanish, egalik qilish va tasarruf qilish huquqlari, bu shaxslar orasida muayyan kelishuvga ko`ra taqsimlanadi.

O`qituvchi xususiy mulkning mohiyati va bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati haqida to`xtaladi. Turli mulk shakllarining afzallik va kamchilik tomonlarini taqqoslaydi.

Davlat mulki:

a) afzallik tomonlari: ijtimoiy zarur, ammo foyda bermaydigan sohalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud;

b) kamchiligi: mulkka egalik qilish va foydalanish masalasida har hil nizolar kelib chiqishi mumkin.

O`quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. *Xususiylashtirish deganda nimani tushunasiz?*

2. *Xususiylashtirishdan kuzlangan asosiy maqsad nimadan iborat?*

3. *Nima sababdan xususiylashtirish jarayonida kichik korxonalar egasi yakka xususiy mulkka, katta korxonalar esa jamoa mulkiga aylantirilmokda?*

Mulk shakllari

Davlat mulki		Xususiy mulk	
1.	Yer	1.	Fukarolik mulki
2.	Yer osti boyliklari	2.	Xujalik shirkatlari va jamiyatlari
3.	Suv	3.	Kooperativlar
4.	Xavo bushligi	4.	Jamoat birlashmalari

5.	Usimlik va xayvonot dunyosi xamda boshka tabiiy boyliklar	5.	Ijtimoiy fondlar
6.	Davlat xokimiyati va respublika boshkaruv organlari mol-mulki	6.	Davlatga karashli bulmagan boshka yuridik tashkilot
7.	Davlat axamiyatiga ega tarixiy va madaniy boyliklar	7.	
8.	Respublika byudjetining mablaglari	8.	
9.	Oltin zaxirasi	9.	
10.	Davlatning valyuta fondi va boshka fondlar	10.	
11.	Maxalliy boshkarish organlariga tegishli mulk	11.	

O`quvchilar bilan 4 daqiqa davomida munozara qilinadi va hulosalanadi.

1. Xususiylashtirish – davlat mulkini hususiy mulkka aylantirish jarayoni.

2.Xususiylashtirishdan kuzlangan asosiy maqsad davlat mulkini boshqa mulk shakllariga aylantirish, turli xil mulk shakllarini rivojlantirish natijasida bozor iqtisodiyotiga o`tish. Bozor iqtisodiyotining eng asosiy xususiyatlaridan biri bo`lgan xususiylashtirish mulkchilikni tarkib toptirish.

3. Respublikamizda xususiylashtirish, avval kichik korxonalar hisoblangan sartaroshxonalar, maishiy xizmat ko`rsatish korxonalari, savdo do`konlari va boshka kichik korxonalarni yakka xususiylashtirish shaxslarga sotish, bepul berish va kim oshdi savdosi orqali sotish bilan amalga oshirildi. Sababi:

a) kichik korxonalarni sotib olish uchun mulkdorlarning pul mablag`lari yetarli bo`lishi lozim;

b) bu korxonalarni sotib olgan mulkdorning asosan o`zi bu korxonada ishlashi va ishchilarni ishlatishi kerak;

v) mulkdorning daromad topishga bo`lgan harakati natijasida bu sohalarni yanada rivojlantirish ko`zlangan.

Katta-katta korxonalar mulkchilikning turli xil ko`rinishidagi korxonalarga aylantirilmokda.

4. Dars mavzusini mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun berilgan 8-savolga har bir o`quvchi o`zi 2 daqiqa davomida mustaqil javob hozirlashi so`raladi.

Ajratilgan vaqt tugaganidan so`ng javoblar eshitiladi va tahlil qilinadi.

5. Dars mavzusini yakunlash va baholash.

Guruhlar faoliyati baholanadi va rasmiylashtiriladi.

6. Uyga vazifa.

1.«Bilimingizni sinab kuring» bandining 1-4-savollariga og`zaki javob topish.

2. «Topshiriq» (ijodiy ish uchun)

VATAN TUYG`USI

**Vatan tuyg`usi** 5- sinf o`quvchilari qadimiy kitob Avesto haqida, o`zbek millati va O`zbekiston xalqi so`zlarining farqida tushunmovchiliklar keltirib chiqarishdi. Davlatimizning qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh ekanligini yetarlicha aniqlay olmadilar. Yil va sanalarda ko`proq xatoga yo`l qo`yilgan. Mamlakatimiz rivoji nima bilan bog`liq degan savolga qiynalib javob berishdi.

1. Avesto haqida ma`lumot.

Darsning maqsadi:

A) Ta`limiy- o`quvchilarga qadimiy qo`lyozma “Avesto” haqida ma`lumot berish .

B) tarbiyaviy- o`quvchilarni undagi ezgu fikrlar ruxida tarbiyalash.

Uslub:- “Sayohat”

Jixoz: Darslik, test materiallari, kuylar, matnlar yozilgan magnit tasmalar va hokazolar.

“Avesto” – nodir madaniyat yodgorligi.

Aziz o`quvchilar, bugungi darsimizda hayolan o`ttiz asr ilgari hayotga “sayohat” qilamiz. U davrni ko`z oldimizga keltiramiz (o`qituvchi oldindan magnit tasmasiga yozib qo`yilgan Prezidentimizning quyidagi gaplarini qo`iyb eshittradi):

“Eng mo`tabar qadimiy qo`lyozmalardan biri “Avesto” dir. “Avesto” ning yaratilganligiga 3000 yil bo`lyapti. Bu nodir kitob bundan o`ttiz asr muqaddam ikki daryo orlaig`ida, manashu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz

avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki uni hech kim inkor qilolmaydi".

Islom Karimov

O'qituvchi "Avesto"ning 2700 yilligi qanday nishonlanganligi haqida ma'lumotlar beradi. O'sha kunlardagi vaqtli matbuot materiallaridan bo'lsa, o'quvchilarni ular bilan tanishtirish yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki Zardusht dini insonning yer yuzasidagi hayotini yengillatishga, uni baxtiyor qilishga qaratilgan eng oqilona dinlardan biri xisoblangan.. Ko'pchilik olimlarimiz fikrlariga ko'ra zardushtiylik dini Markaziy Osiyoda shakllangan. Zardusht yaratgan "Avesto" kitobi haqida Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi. Podshox Doro ibn Doro xazinasida Abistonning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar uni kuydirib yuborishi natijasida Abistonning beshdan uch qismi butunlay yo'qolib ketdi. "Avesto"ning makedoniyalik Iskandar tomonidan Yunonistonga olib ketilgani, zarur joylarni tarjima ettirib qolganini kuydirib yuborgani, o'n ikki ming qoramol terisidagi tillo matn haqidagi keyingi zardushtiylik adabiyotiga mansub "Bundaxshin", "Denkard", "Arda Virat", "Forshoma" va boshqa asarlarda ma'lumotlar ham mavjud.

2.Mavzu:O'zbekiston xalqi.

Darsning maqsadi: O'zbek millati va O'zbekiston xalki so'zlarining mazmun mohiyati. Millat va xalqning shakllanishida vatan tuyg'usi asosiy omil ekanligi xaqida bilimlar berish.

Dars jixozi:

3. "Vatan tuyg'usi" darsligi.
4. O'zbekiston xaritas, siyosiy xarita
3. Xujjatli film vidiyeo disk

Tarqatma material:

Dars davomida beriladigan atama, tushuncha, sanalar yozilgan kartochkalar.

Darsning borishi:

7. Tashkiliy qism.
8. Uy vazifasini takrorlash.
9. Yangi dars mazmunini yoritish.
10. O`tilgan mavzuni mustahkamlash.
11. Dars yakunlarini chiqarish, baxolarni e`lon qilish.
12. Uyga vazifa.

Dars bayoni: Tassavvur qilib ko`ring maktabdan borganimizda uyda xech kim bo`lmasa qanday zerikarli tuyuladi. Ota-onangiz, aka- ukalaringiz kelishi bilan dilingiz yashnab ketgandek bo`ladi Xuddi shu kabi yurtimizni aziz va mo`tabar etib turgan eng katta boylik mana shu muborak zaminimizda yashab uni obod qilib kelayotgan insonlardir. Prezidentimiz Islom Karimov “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson” deb barchamizni shu yurtning egasi bo`lgan insonlarini qadrlab yashashga, Chunki ana shu insonlarning barchasi birgalikda O`zbekiston xalqi ulkan oilani tashkil etadi. Biz ana shu xalqqa mansubmiz, ya`ni uning farzandlarimiz. O`zbekiston xalqini millatidan qat`iy nazar, O`zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Shuni bilingki fuqaro va inson so`zlari ma`nosiga ko`ra bir- biridan farq qiladi. **Xalq** arabcha so`z bo`lib, yaratilgan degan ma`noni anglatadi, ya`ni xalq-yaratilgan kishilar jamoasi, odamlarni bildiradi. **Millat** deb til, din makon, tarix, turmush tarzi va ma`naviyat birligiga ega bo`lgan etnik guruhga aytiladi. Odamlar yuksak ma`naviyatga, aql-idrokka erishsagina ulardagi vatan tuyg`usi, umumiy manfaat tuyg`usi boshqa xissiyotlardan ustunlik qilib, turli millat vakillari yagona xalq bo`lib birlashishi mumkin. Demak millat va xalqning shakllanishida ham vatan tuyg`usini asosiy omil bo`lib xizmat qiladi. Biz o`z xalqimizni yaxshi bilish uchun odamzod qanday yaralgani va ko`payganini bilishimiz zarur.

Mamlakatimizning xalqi tarkibiga o`zbek millati vakillari ko`psonli va milliy davlatchiligimizga nom bergan xalq xisoblanadi. Shuning uchun milliy

davlatчилиgimizga o'zbek davlatчилиgi, davlatimizning nomini esa O'zbekiston deb ataymiz. "O'zbekiston" so'zi "o'zbek iston" degan ikki mustaqil ma'noli so'zdan iborat bo'lib o'zbeklar yashaydigan joy degan ma'noni anglatadi. O'zbek xalqi deganda O'zbekistonda va dunyoni boshqa mamlakatlarida yashaydigan o'zbek millatiga mansub aholi ya'ni o'zbeklar tushuniladi."

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

3. Xalq va millat so'zlarining ma'nosini tushuntirib bera olasmizmi?
4. "O'zbek xalqi" va "O'zbekiston xalqi" degan tushunchalar haqida gapirib bering?
5. O'zbek xalqi orasida yetishib chiqqan ulug' shoir va mutafakkirlarni sanang?

Uyga vazifa.

O'tilgan mavzu yuzasidan test topshiriqlari tuzish va ularni ishlash.

3.Mavzu: O'zbekiston deya atalur

Darsning maqsadi:

O'quvchilarga O'zbekiston haqida, Vatanimizning betakror go'zalligi haqida, O'zbekistonning joylashish o'rnini, Moddiy va ma'naviy boyliklari, buyuk ajdodlarimizning ma'naviy me'rosi haqida ma'lumot berish.

Darsning jihozlari:

4. Darslik
5. O'zbekistonning siyosiy – ma'muriy xaritasi.
6. O'zbekistonning tarixiy atlas, doska, bo'ra, tarqatmalar, testlar, rasmlar.

IV. Tashkiliy qism:

O'quvchilar diqqatini darsga jalb etib ishchi muhiti yaratiladi.

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarga test savollari tarqatiladi.

1.O'zbekiston qaysi mintaqada joylashgan?

- A)Janubiy Osiyo V)Sharqiy Yevropa S) MArkaziy Osiyo
D) Lotin Amerikasi

2. O'zbekiston dunyodagi qanday o'lkalardan biri?

- A) Navqiron V) Eng qadimiy va betakror S) Tog'lari ko'p D) Bog'lari ko'p

3.O'zbekiston yurtimiz janubi-g'arbida qaysi mamlakat bilan chegaradosh?

A) Turkmaniston V)Tojikiston S)Eron D) Qirg'iziston

4.Davlatimiz janubda qaysi mamlakat bilan chegaradosh?

A) Turkmaniston V) Tojikiston S) Avg'oniston D) Qirg'iziston

V. Darsni yakunlash:

Vazifani birinchi bo'lib bajargan o'quvchilardan 5 nafar o'quvchi baholanadi.

O'quvchilarni darsdagi faolligi darajasiga baho beriladi. Eng faol o'quvchilar rag'batlantiriladi. Xato va kamchilikni bartarf etish yo'llari ko'rsatiladi.

VI. Uyga vazifa:

1.Mavzu asosida berilgan savollarga javob topish.

2.O'zbekiston xaritasini chizib kelish

3. O'zbekiston haqida shoirlarimiz sherlaridan yod olish.

4.Yil va sanalar

O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi 1991-yil 31-avgustda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'loni qilish to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorda «Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risi»dagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va Respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin, «1-sentabr O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin» deb ko'rsatilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi Qonunining 38-moddasiga muvofiq Islom Abdug'aniyevich Karimov 1991-yil 31-dekabrda boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishdi va qasamyod qildi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991-yil 18- noyabr kuni tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 - yil 3-iyul kuni tasdiqlandi

O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari

“O'zbekiston Qahramoni” unvoni va “Oltin Yulduz” medali – oliy darajadagi mukofot. 1994 yil 5 mayda ta'sis etilgan.

«Sog'lom avlod uchun» ordeni — onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni ta'minlashdagi alohida xizmatlar uchun beriladi. 1993 yil 7 mayda ta'sis etilgan.

- «Mehnat shuhrati» ordeni — O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekistonda iqtisodiyot va madaniyat yuksalishiga, xalq farovonligi oshishiga, tinchlik va barqarorlik saqlanishiga xizmat qiladigan ulkan ishlari uchun beriladi. 1995 yil 6 mayda ta'sis etilgan.

- O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 3 iyulda qabul qilingan «Bayram kunlari haqida»gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 21 dekabrda qabul qilgan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 131-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi kunlar bayram (dam olish) kuni deb belgilangan.

- 1 yanvar - Yangi yil.
- 8 Mart - Xotin-qizlar kuni
- 21 mart - “Navro`z” bayrami
- 9 May - Xotira va qadrlash” kuni
- 1 sentabr - Mustaqillik kuni.
- 8 dekabr - Konstitutsiya kuni
- Ro`za hayiti (Iyd al-Fitr) - Diniy bayramning birinchi kuni.
- Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) - Diniy bayramning birinchi kuni.

Yillarga nom berilishi

AmirTemur yili 1996

Inson manfaatlar yili 1997

Oila yili 1998

Ayollar yili 1999
Soglom avlod yili 2000
Onalar va bolalar yili 2001
Qariyalarni qadrlash yili 2002
Obod mahalla yili 2003
Mexr- muravvat yili 2004
Sog`lom avlod yili 2005
Xomiylar va shifokorlar yili 2006
Ijtimoiy himoya yili -2007
Yoshlar yili 2008
Qishloq taraqqiyoti yili 2009
Barkamol avlod 2010
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili-2011
Mustaxkam oila yili- 2012 yil
Obod turmuush yili-2013
Sog`lom bola yili-2014

5.Mamlakatimiz rivoji nima bilan bog`lik

Prezident I.A. Karimov o`zining “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida ma’naviy va moddiy hayot uyg`unligi masalasiga alohida e’tibor qaratib shunday deydi: “Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, **insonga xos orzu-intilishlarni ro`yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo`lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o`ylaymanki, o`rinli bo`ladi.** Qachonki bu ikki omil o`zaro uyg`unlashsa, tom ma’nodagi qo`sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o`sishtirish, yuksalish jarayonlari sodir bo`ladi”.

Mamlakatimizning rivoji inson omili , yurt tinchligi bilan bog`lik. Qushimcha qilib yana shuni aytish mumkinki mamlakatimiz rivoji ayniqsa unib o`sib kelayotgan yosh avlod qo`lida. Ular qalbiga Vatanga bo`lgan mexr muxabbat

tuyg'ularini singdirish har bir dars jarayonida ta'lim va tarbiyani yonma – yon olib borish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Dars jarayonida yoshlar ta'lim tarbiyasiga oid xikmatlardan, rivoyatlardan asarlardan misollar keltirilsa ayni muddao bo'ladi. Yoshlar qalbiga ko'proq kecha va bugun haqida qiyoslash, fikrlash, xulosa chiqarishga undash maqsadga muvofikdir.

Mamlakatimiz rivoji nima bilan bog'liq degan savolga xar bir inson uning ma'naviy, moddiy boyliklarini asrab avaylashga vijdonini uygotishi kerak.

Mamlakatimiz rivoji nima bilan bog'liq degan savolga xar bir inson uning ma'naviy, moddiy boyliklarini asrab avaylashga vijdonini uygotishi kerak.

O'quvchilarga kasb va hunar haqida tushuncha berar ekanmiz ularni yaxshi kasb egalari bo'lib vatanimiz ravnaqi uchun o'z xissalarini qo'shishga undaymiz.

Ayniqsa hozirgi davrda mamlakat rivoji yalpi ichki mahsuloti eksport salmog'i bilan belgilanar ekan o'quvchilarga iqtisodiy ma'naviy bilim berib dunyo qarashini kengaytirishimiz zarur.

4 – sinf “Odobnoma” darslarida o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish uchun tavsiyalar:

Buyuk davlatimiz farzandlarini odobli va yuksak axloqli qilib tarbiyalash – bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasidir.

“Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichi, boshlang'ich sinflarda “Odobnoma” fanidir. “Odobnoma” fanining bosh maqsadi va vazifasi :

- *yosh avlod qalbi va ongida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish;*
- *O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarimizni yuksak axloq va madaniyatni o'zida mujassam etgan shaxslar qilib tarbiyalash;*
- *Davlat ta'lim standartlari talablarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish;*
- *o'quvchilarda mardlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish, milliy iftixor tuyg'usini kamol toptirish, ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishiga xizmat qilishdan iborat*
- *bolalarda erkin, sog'lom fikrini rivojlantirish, to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish;*
- *Tabiatni asrash va e'zozlash, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, milliy o'yinlar, ilm va hunarning xosiyati, odob – inson ko'rki kabi mavzularda o'quvchilarni xalqimizga xos bo'lgan odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish.*

- o'quvchilar tarbiyasida odob-axloq me'yorlarini, insoniylik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

4 – sinf “Odobnoma” darslarida o'quvchilar bilimida bir qancha bo'shliqlar aniqlangan bo'lib, darslarni ushbu tavsiyalarimizdan foydalangan holda o'tish maqsadga muvofiqdir.

1. Milliy - madaniy markazlar nechtaligini;

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ularning har biri o'z milliy urf-odatlarini, an'analarini, tiliga ega. Ayni vaqtda respublikamizda **140 dan ortiq** milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ularning tehg huquqli bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat qonun bilan kafolatlanib qo'yilgan. Milliy-madaniy markazlar faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

(Ushbu ma'lumotlardan **“O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat”** yoki **“Barcha millatlar teng huquqli, do'st-birodardirlar”** mavzularini o'tishda foydalanish mumkin.)

2. Belgiyadagi buyuk ajdodimizga bag'ishlab o'rnatilgan haykal kimga tegishli ekanligini ;

Biron bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Keyinga paytlarda buyuk ajdodlarimizga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib bormoqda. Buning tasdig'ini dunyoning turli mamlakatlarida ular xotirasiga bag'ishlab barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ko'rish mumkin. Masalan, Belgiyada IBN SINOga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Qohirada Ahmad Farg'oniy xotirasiga bag'ishlab o'rnatilganmuhtasham haykallarni eslash joiz.

(„Ajdodlarimiz ardoqlagan qadriyatlar“, „O'zbekiston – madaniy va ma'naviy meroslarga boy o'lka“ mavzulari uchun)

3. Imom Al Buxoriy tavalludi haqida;

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy 810 – 871 yillarda ysahab o'tgan buyuk bobokalonimizdir. Buxoroda tug'ilib, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida vafot etgan.

Istiqlolning ilk yillarida, ya'ni 1998 yilda prezidentimiz tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi. Shu

munosabat bilan Samarqand viloyatining Xartang qishlog'ida qad rostlagan Imom al-Buxoriy majmuasi yurtimizdagi tabarruk manzillardan biridir. Ushbu ziyoratgoh yurtdoshlarimiz va chet ellik sayyohlar uchun ham muqaddas qadamjolaridan biridir.

(„O'zbekiston – madaniy va ma'naviy meroslarga boy o'lka“, „Mustaqillik yillarida tiklangan tarixiy obidalar, yodgorliklar. Farg'oniy, Marg'inoniy, “Alpomish”, “Avesto” monumentlari“ mavzulari uchun)

4. Najmiddin Kubroning shogirdlari haqida;

Musulmon olamidagi eng zabardast donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz Najmiddin Kubrodir. 1145- 1221 yillarda yashab o'tgan. Uning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al- Xorazmiydir. Kubro deb atalishiga sabab behad ziyrak tuganmas zakovat egasi bo'lgan va har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib bergan, bahslarda g'olib chiqqan. Najmiddin Kurobi:

1. Tomatul kubro – balo-qazolarning ldini oluvchi, xaloskor
 2. Abul-jannob – dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq
 3. Valitarosh – valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi
- kabi nomlar bilan ham atashgan.

Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Shamaviy, sayfiddin Bahorziy va Bahouddin Valad kabi murid va shogirdlari bo'lgan.

Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z shogirdlari bilan shiddatli jangga kirib shahid bo'lgan.

(„Ajdodlarimiz ardoqlagan qadriyatlar“, „O'zbekiston – madaniy va ma'naviy meroslarga boy o'lka“ mavzulari uchun)

4. Konstitutsiya moddolari;

13-modda
24-modda
43-modda
44-modda



45-modda
46-modda
65-modda
66-modda



13-modda 45-modda
24-modda 46-modda
43-modda 65-modda
44-modda 66-modda

13-modda.

O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.



24-modda.

Yashash huquqi har bir
insonning uzviy huquqidir.
Inson hayotiga suiqasd qilish
eng og'ir jinoyatdir.



Межшкольный Ресурсный Центр "School Goes Digital" www.edunet.uz



43-modda.

Davlat fuqarolarning
Konstitutsiya va qonunlarda
mustahkamlangan huquqlari
va erkinliklarini ta'minlaydi.



Межшкольный Ресурсный Центр "School Goes Digital" www.edunet.uz



**O'zbekiston
Respublikasining
KONSTITUTSIYASI**

13-modda 45-modda
24-modda 46-modda
43-modda 65-modda
44-modda 66-modda

44-modda.

Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.



Межшкольный Ресурсный Центр "School Goes Digital" www.edunet.uz



**O'zbekiston
Respublikasining
KONSTITUTSIYASI**

13-modda 45-modda
24-modda 46-modda
43-modda 65-modda
44-modda 66-modda

45-modda.

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.



Межшкольный Ресурсный Центр "School Goes Digital" www.edunet.uz



46-modda.
Xotin-qizlar va erkaklar
teng huquqlidirlar.



Межшкольный Ресурсный Центр "School Goes Digital" www.edunet.uz



65-modda.
Farzandlar ota-onalarning nasl-
nasabidan va fuqarolik
holatidan qat'i nazar, qonun
oldida tengdirlar.
Onalik va bolalik davlat
tomonidan muhofaza qilinadi.



Межшкольный Ресурсный Центр "School Goes Digital" www.edunet.uz



**O'zbekiston
Respublikasining
KONSTITUTSIYASI**

13-modda	45-modda
24-modda	46-modda
43-modda	65-modda
44-modda	66-modda

66-modda.
Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z otionalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.



Межшкольный Ресурсный Центр "School Goes Digital" www.edunet.uz

(„Konstitutsiya – Asosiy qonun. Bolalar huquqlarining ta'minlanishi“, „Bizning huquq va burchlarimiz. qonun, qoida. Tartib tushunchalari“, „Davlatni kim boshqaradi?“ mavzulari uchun. Prezentatsiya ilova qilinadi.)

Adabiyotlar va internet resurslari:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” Toshkent: “Ma`naviyat” 2008.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Milliy istiqlol g'oyasi. Toshkent: 2010.
3. www.qadriyat.uz
4. www.e-adabiyot.uz
5. www.e-tarix.uz
6. www.edunet.uz
7. www.xs.uz
8. www.icc.uz